

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI
JAHON SIYOSATI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

Axmadjonov Xumoyun Taxavvurovich

MAVZU

**HINDISTONDA DEMOKRATIYANING RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARI**

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

5220500 – XALQARO MUNOSABATLAR

Ilmiy rahbar: prof. Mirqosimov S.M.

Toshkent-2011

MUNDARIJA

KIRISH.....	Bet 3
1-BOB. ZAMONAVIY DAVRDA HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	9
1.1. Demokratiya tushunchasi mohiyati va unga doir nazariy yondoshuvlar.....	9
1.2. Demokratik siyosiy tizim shakllari va prinsiplari.....	15
2-BOB. HINDISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI VA JAMIYAT HAYOTINI DEMOKRATLASHTIRISHNING ASOSIY JIHATLARI.....	25
2.1. Hindistonda demokratiya rivojlanishining asosiy bosqichlari.....	25
2.2. Hindistonda demokratik davlat boshqaruvining shakllanishi.....	32
2.3. Hindistonda jamiyat hayotini demokratlashtirishda siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining o‘rni.....	38
XULOSA.....	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	50
ILOVA.....	57- 59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XX asrning 90 yillarida “sovuq urush”ning barham topishi va jahon tartiboti holatining o‘zgarishi xalqaro munosabatlarda tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Liberal-demokratik g‘oyalar jahondagi aksariyat davlatlar boshqaruviga ta’sir o‘tkazib, davlat boshqaruvini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirila boshlandi. Ushbu qarashning nazariy asosini amerikalik diplomat va olim F.Fukuyamaning “Tarix intihosi” asaridagi optimistik g‘oyalarida kuzatish mumkin. Uning fikricha, kommunistik mafkura muvafaqqiyasizlikka uchradi, kelgusi jahona tartiboti liberal-demokratik tamoyillar asosida shakllanadi¹. Shu jihatdan ma’lum ma’noda XX asrning 90-yillaridan boshlab, postsovet davlatlarida demokratik boshqaruvning joriy etilishi olimning ilmiy nazariyasini isbotlaydi.

Ma’lumki, demokratiyani ilmiy tahlil etishga urinishlar qadimdan boshlanib, bugunga qadar davom etib kelishiga qaramay, umumilmiy yagona ta’rifga ega emas. Manbalarda demokratiyada "xalq oliy hokimiyat timsoliga ega bo‘lib, bu hokimiyatni yo o‘zi bevosita amalga oshiradi yoxud erkin saylov tizimi orqali o‘zlari tanlagan vakillari vositasida amalga oshiradilar", deb ta’riflanadi. Avraam Linkoln (AQSh XVI prezidenti) ning so‘zlariga qaraganda, demokratiya - "xalqning shu xalq uchun amalga oshiradigan xalq boshqaruvidir"².

Ta’kidlash joizki, jamiyat hayotini demokratlashtirish, inson huquqlari ustuvorligi va so‘z erkinligini ta’minlash bugungi kunda fuqarolik jamiyati qurishning asosiy qonuniyatlaridan bo‘lib, davlat islohatlar tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. Zero, yurtboshimiz e’tirof etganidek, islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, inson manfaatlarini ta’minlash uchun xizmat qilishi kerak. Biroq muayyan bir davlatning geosiyosiy manfaatlariga mazkur jarayonning bo‘ysindirilishi, tashqi kuchlar ta’sirida ko‘r-ko‘rona singdirishga urinish jamiyat xavfsizligiga jiddiy xatar tug‘diradi.

¹ Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Акчасова. –СПб.: Питер, 2009. –С.111-112.

² Ғофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. –Б.118-119.

Demokratiya qonunchilik sharoiti bilan uzviy bog‘liq. Demokratiyalash jarayoni O‘zbekistonda ham davom etmoqda. Prezident Islom Karimov 1996 yil 29 avgustda Oliy Majlis 6-sessiyasida “Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari” xususidagi nutqida bu masalaga chuqur yondoshdi. Keyinchalik ham bu masalaga bir necha bor etibor berib kelmoqda. “Demokratiyaning eng muhim tamoyili, degan edi u, - odamlarning saylov huquqini, o‘z xoxish-irodasini erkin ifodalash, o‘z manfaatlarini ruyobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta’minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim”¹.

Bugungi kunda Janubiy Osiyo mintaqasida 1.4 milliard aholi istiqomat qiladi, asosan sakkizta davlat: Afg‘oniston, Bangladesh, Butan, Maldiv Respublikasi, Nepal, Pokiston, Hindiston va Shri Lanka mazkur mintaqada joylashgan. Mazkur davlatlar ichida Hindiston ko‘p millatli, murakkab ijtimoiy qatlamga ega davlat hisoblanadi. Hindistonda demokratiyaning mohiyati mamlakat siyosiy an‘analari orqali tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar Hindistonda demokratiya tamoyillarning kirib kelishini mustamlakachilik siyosati bilan bog‘lashadi. Xususan, Hindistonning uzoq yillar davomida jahondagi eng demokratik tipdagi davlat sanalgan Buyuk Britaniya ta’sir doirasida bo‘lishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy tartibotlarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan². Hindistonda G‘arbda ta’lim olgan J.Neru singari siyosiy elitalarning shakllanishi, Kongress yetakchiligidagi jamoa harakatlarning demokratik faoliyati, mustaqillik uchun o‘tkazilgan saylovlarda Kongressmenlarning ishtirok etishi demokratiyaning rivojlanishiga kuchli ta’sir o‘tkaza olgan deyish mumkin³.

Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda quyidagi tarixiy jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, Hindistonda demokratiyaning zamonaviy tamoyillarining qaror topishi Buyuk Britaniya imperiyasi mustamlakachiligi, davlat boshqaruv tizimida

¹ Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. –Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999.– Б. 64.

² See. Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.38-39.

³ Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. –Vol.2. –P.94.

qoʻllagan tajribasi bilan bogʻliqdir. Mamlakatning mustaqillikka erishishi Hindistonda demokratik davlat barpo etish imkoniyatini yaratdi;

Ikkinchidan, Hindiston siyosiy elitasining katta qismi Gʻarb anʼanalari asosida taʼlim olganligi va ulardagi gʻarb davlatchilik tajribasi bilan yaqindan tanishligi mamlakatda mustaqillik yillaridan soʻng demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi;

Uchinchidan, mustaqillik yillaridan keyingi davrda mamlakatda Hindiston Milliy Kongress partiyasining yuqori mavqeni egallashi va 1990 yillarga qadar oʻz taʼsirini saqlab qolishi, uning bugungi kunda Bxaratiya Janata partiyasi bilan raqobati ikki partiyali tizimning shakllantirganligi ham demokratiya rivojlanishining asosiy jihatlarini belgilab berdi.

Mazkur omillar Hindistonda demokratiyaning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish, uni Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik isloholar bilan qiyoslash, mamlakatimiz rivoji uchun hind demokratiyasining ijobiy jihatlarini tadqiq dolzarb ekanligini koʻrsatadi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda, avvalo, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlari, Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatimizni modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini asoslarini barpo etish va rivojlantirish borasidagi davlat siyosati keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida Oʻzbekiston pozitsiyasi yuzasidan soʻzlagan nutqlariga tayanildi¹.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997, –326 б.; Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –144 б.; Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –320 б.; Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11 –Т.:Ўзбекистон, 2003. –320 б.; Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислам Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь; Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. –80.б.; Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий

Demokratiyani nazariy jihatdan tadqiq etish uning mohiyatini ochib berish, asosiy xususiyatlarini tahlil etish, demokratiyani majburiy joriy etishning salbiy oqibatlarini, Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar rivoji va tashqi kuchlarning ta'siri S.Akobirov, R.M.Alimov, K.Bahriev, M.Bo'riyev, I.Vaskin, S.Jo'raev, T.Jo'raev, U.A.Hasanov, H.I.Mustapova, X.T.Odilqoriev, D.X.Razzoqov, S.Saidolimov, S.Safoev, N.O'.To'laganova, X.P.Umarov, S.M.G'ofurov, A.A.Xaydarov, A.M.Qosimov¹ singari bir qator yurtimiz olimlarning ilmiy asarlarida va maqolalarida keng yoritib berilgan.

Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi, uning tarixiy shart-sharoitlari, mamlakatda demokratik davlat boshqaruvining joriy etilishi, ustivor yo'nalishlari. Demokratiyaning institutlarning qaror topishi, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining mamlakat taraqqiyotidagi o'rni A.Amir, A.V. Akimov, B.S.Baviskar, A.Fischer, P.Gey, M.Jobelius, V.Kachoxa, D.Kapur, A.Kohli, R.Kothari, P.B.Mehta, S.K.Mitra, A.S.Narang, S.A.Ralekar, M.Tumulek, R.Tenbusch, A.Varshney, G.Yaskina singari xorijlik va hind olimlari tomonidan o'rganilgan va ularning ilmiy risolalarida mazkur muammo tahlil etib o'tilgan².

Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлиси даги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь;

¹ Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. –Т.:Шарқ. 2005. –456 с.; Бахриев К. Демократия ва инсон ҳуқуқлари. / Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари туркимидан 10-рисола. –Т., 1997. –Б.33-37.; Бўриева М. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. – 268 б.; Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. –Т.:Академия, 2007. –184 б.; Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси (ўқув қўлланма). – Т.:Академия, 2007. – 302 б.; Жўраев Т., Ақобиров С. Миллий манфаатлар ва миллий хавфсизлик. –Т.:Академия, 2007. –106 б.; Касымов А.М., Васкин И. Основные направления внешней политики Узбекистана. – Т.:Ўзбекистан, 1994. –165 с.; Мустапова Ҳ.И. Ўзбекистон-Ҳиндистон муносабатларида Марказий Осиёда барқарорликни таъминлаш масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - жамиятнинг барқарор ривожланиш кафолати: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами: Тошкент, 2010 йил 3 декабрь. –Т.: ТошДШИ, 2010. –Б.214-217.; Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.194-195.; Гофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.; Саидолимов С., Жўраев С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. – Т.:Академия, 2007. – 148 б.; Сафоев С. Марказий Осиёда кечаётган геосиёсий жараёнлар ва минтақанинг ҳозирги дунё халқаро муносабатлар тизимида тутган ўрни // Халқаро муносабатлар. – 2005. –№3. –Б.4-9.; Умаров Х.П. Ўзбекистон Республикаси геосиёсий ҳолатининг геостратегик хусусиятлари. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражаси учун диссертация автореферати. – Т., 2004. – 24 б. ; Хақимова Н. Ҳиндистон ва Марказий Осиё минтақаси: ҳамкорлик истиқболлари // Шарқшунослар анжумани. –Т. –№5. –Б.102-107.; Хақимова Н. Ҳиндистон ва Марказий Осиё минтақаси: ҳамкорлик истиқболлари // Шарқшунослар анжумани. –Т. –№5. –Б.103-106.;

²Акимов А.В. Индия. год спустя.// [Азия и Африка сегодня.](#) –2010. –№ 6. –С.39-42.; Появление Индии в Центральной Азии в качестве очередного игрока.//Аму Дарья. –2001. –№ 4. –С.35-38.; Проблема общего блага в современной демократии // Вопросы философии. – М. – 2000. – № 5. – С.317-24.; The Evolution of the Public Sphere in India. // Economic and Political Weekly. – June 30 2010. –P.49-56.; Baviskar B.S. NGOs and Civil Society in India. // Sociological Bulletin. –2001. –Vol.50. –№.1. –P.58-66.; Gey P., Jobelius M., Tenbusch R. India.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishini yoritishda internet manbalaridan ham keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishining manbalarida, avvalo, metodogik asos hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy, MDH mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida Hindistonda demokratiyaning rivojlanish xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish va asosiy tendensiyalarini ochib berish maqsad qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqorida ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

- Demokratiya tushunchasi mohiyati va unga doir nazariy yondoshuvlarni tahlil etish;
- Demokratik siyosiy tizim shakllari va prinsiplarini o‘rganish;
- Hindistonda demokratiya rivojlanishining tadrijini bayon etish;
- Hindistonda demokratik davlat boshqaruvining shakllanishi o‘rganish;
- Hindistonda jamiyat hayotini demokratlashtirishda siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining o‘rnini tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. Xalqaro munosabatlar tizimida Hindistonda demokratiyaning qaror topishi va uning rivojlanish xususiyatlari bitiruv malakaviy ish ob’ekti sifatida belgilandi.

Challenges On The Road To Becoming A World Power // Compass 2020. –2007. –№2. –P.2-23.; Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.28-39.; Kapur D., Mehta P.B. Public Institutions in India: Performance and Design. –New Delhi Oxford University Press, 2005. –P. 174-76.; Kohli A. India’s Democracy. An Analysis of Changing State-Society Relations. –New Jersey: Princeton University Press, 1990. – 334 p.; Kothari R. Continuity and Change in the Indian Party System // Asian Survey. –1970. –№10 (11). –P.46-57.; Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. –Vol.2. –P.87-94.; Narang A.S. Indian Government and Politics. –New Delhi:Geetanjali Publishing House, 2004. –347 p.; Palekar S.A. Constitution and Parliamentary Democracy in Contemporary India. –Jaipur: ABD Publishers, 2002. –348 p.; Tumulec M. The stability of multi-party democracy in India - 14 October 2007; Varshney A. India’s Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –P.41-48.;

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Hozirgi davrda Hindistonda demokratik davlat boqaruvining amalga oshirilishi, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining jamiyat hayotini demokratlashtirishdagi roli, qoʻllayotgan vosita va uslublari bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi tizimli holda tadqiq etilganligi, soʻnggi yillarda mamlakatda demokratiyaning rivojlanish holati va asosiy tendensiyalarining ochib berilganligi ishning ilmiy yangiligini koʻrsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishda tahlil etilgan voqealar va faktlar, xulosalar va boshqa bir qator masalalarga oid materiallar «Siyosatshunoslik», «Jahon siyosati» va boshqa gumanitar yoʻnalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy-amaliy qoʻllanma sifatida qoʻllanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat.

1-BOB. ZAMONAVIY DAVRDA HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Demokratiya tushunchasi mohiyati va unga doir nazariy yondoshuvlar

Bugungi kunda jahondagi ko‘plab davlatlar demokratik tamoyillar asosida o‘z taraqqiyot modelini shakllantirishga intilishi, demokratiyaning mohiyatini ilmiy asosda o‘rganish, bu boradagi zamonaviy nazariy yondoshuvlar tadqiq etishning dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ta’kidlash joizki, demokratiyani ilmiy tahlil etishga urinishlar qadimdan boshlanib, bugunga qadar davom etib kelishiga qaramay, umumilmiy yagona ta’rifga ega emas. Manbalarda demokratiyada "xalq oliy hokimiyat timsoliga ega bo‘lib, bu hokimiyatni yo o‘zi bevosita amalga oshiradi yoxud erkin saylov tizimi orqali o‘zlari tanlagan vakillari vositasida amalga oshiradilar", deb ta’riflanadi. Avraam Linkoln (AQSh XVI prezidenti) ning so‘zlariga qaraganda, demokratiya - "xalqning shu xalq uchun amalga oshiradigan xalq boshqaruvidir".

Shu jihatdan I.Ilin ta’rifi ham qiziqish uyg‘otishi mumkin. U shunday yozadi: "Demos" so‘zi xalq ma’nosini anglatadi, "kratos" so‘zi kuch, hokimiyatni ifodalaydi. Haqiqiy davlat shu ma’noda "demokratik" bo‘lishi mumkinki, o‘zining eng yaxshi kuchlarini xalqdan oladi hamda uni o‘z tuzilishida to‘g‘ri ishtirok etishga jalb qiladi. Bu shu eng yaxshi, kuchlarning doimiy tanlovi davom etib, xalq o‘z davlatini to‘g‘ri qurishni bilishi darkor¹.

“Siyosatshunoslik” darsligida keltirilishicha, hozirgi davrda “demokratiya”ning bir necha ma’nolari mavjud. “Demokratiya”ning birinchi ma’nosi etimologiyasi, ya’ni atama sifatida kelib chiqishi bilan bog‘liq. Chunki qadimgi Gresiyada paydo bo‘lgan “demokratiya” atamasi demos – “xalq”, kratos

¹ Пугачев В.П. Соловьев А.И. Введение в политологию: Учебник для студентов высш. учеб. заведений. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект Пресс, 1999. – С.427.

– “hokimiyat”dan iborat bo‘lib, “xalq hokimiyati” deb tarjima qilinadi. Biroq tadqiqotchi K.Baxrievning e’tiroficha, demokratiya kecha paydo bo‘lgani yo‘q, qolaversa, u G‘arbning mahsuli ham emas, aksincha, demokratiya qadim-qadimda Sharqda shakllangandir. Garchand biz ko‘p yillik sivilizvsiya tarixini yunonlprdpn, rimliklardan boshlab o‘rgangan bo‘lsakda, qadim madaniy taraqqiyot aslida hindlardan, ulardan ham avvalroq xitoyliklari turkiy xunlardan boshlangani bugun biz uchun sir emas. O‘tmishdan Konfusiydan bu o‘tkinchi dunyoda odamday yashash uchun kerak bo‘ladigan yo‘lni, hayot tarzini birgina so‘z bilan ifodalaganda, u qanday so‘z bo‘lardi deb so‘rashganida u – kenglik deya javo bergan. Aslida demokratiya shu – bag‘rikenglik, murosa, birovni chidab eshitish, kengashish, mojarolarni siyosiy yo‘l bilan hal qilmoq, qanchalik noqulay bo‘lmasin, o‘zgacha fikrni ham eshitmoq, hamma ijtimoiy tabaqalar bilan, xalq bilan hisoblashmoqdir. Insoniy munosabatlardagi ana shu bag‘rikenglikni davlat siyosatiga aylantirib, uni “demokratiya” deb ataydilar¹.

Demokratiya – doimiy o‘zgarish, rovojlanishda bo‘lgan hodisa. Inson qo‘li bilan demokratiya ezgulikka ham, Yovuzlikka ham yo‘naltirilishi mumkin. Keyingisi yuz bermasligi uchun bu hodisaning tabiatidan kelib chiqadigan barcha nuqson-illatlar haqida o‘z-o‘ziga yaxshilab hisob berish kerak bo‘ladi. Asrlar davomida aksildemokratik tafakkurning juda mustahkam an‘analari mavjud bo‘lib kelganligi tasodifiy emas. Ayrim tadqiqotchilar “demokratiya” so‘zining tom ma’nosi ko‘pchilik o‘ylaganidek “xalq hokimiyati” emas, balki “yo‘qsillar hokimiyati” (demos – mulksiz, yo‘qsil, mansabsiz) deb hisoblaydilar. Bu fikrni rad etish shuning uchun ham mushkilki, Qadimgi Gresiyadagi Afina davlatida 400 ming aholi bo‘lib, uning faqatgina 40 mingigina teng huquqli fuqarolar bo‘lishgan. Mana shu o‘n foiz aholi butun “demos” nomidan hokimiyatga da’vogarlik qilgan. Bunga ayollar, ko‘chib kelganlar, qullar siyosiy huquqlarga ega bo‘lmaganlar². Shuningdek, “demokratiya” nisbatan salbiy va ijobiy munosabatlar munosabatlar ilmiy doiralarda insoniyat rivojlanishining har bosqichida mavjud bo‘lganligini

¹ Бахриев К. Демократия ва инсон ҳуқуқлари. / Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари туркимидан 10-рисола. –Т., 1997. –Б.33.

² Одиқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.194-195.

kuzatish mumkin. Yuqoridagi qo‘shimcha qilib aytganda, Antik davr (Aflotun, Polibiy), o‘rta asrlar (Makeavelli) va hatto Yangi va Eng yangi davr olimlari (Kroze, Xantington) demokratiyaga tanqidiy munosabatda bo‘ldilar, anarxiya, o‘zboshimchalikka o‘ta moyil boshqaruv shakli hisoblab, demokratiyaga nisbatan ijobiy qarashga ega bo‘lmaganlar. Masalan, Aflotun uchun demokratiya qaryib hamisha bema‘nilikka aylanish bilan yakun topdi. “Hokimiyat olomon qo‘lida ekan, safsatabozlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadilar va qonunlar o‘rnini xalq qarorlari egallaydi”¹.

Feodalizm bosqichida avtorkratiya – avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan yakka shaxsning hukronligi, ya’ni monarxiya davlat tashkilotining yetakchi shakli edi: u demokratiyaga ochiqdan ochiq salbiy munosabatda bo‘ldi, boshqacha fikrlaydiganlarni shafqatsizlik bilan qatog‘on qildi.²

“Demokratiya” iborasi Yangi zamonda, ingliz va fransuz burjua inqiloblari davrida ijobiy mazmunga ega bo‘ldi. Sh.L.Monteskyo, T.Gobbs, J.Lokk, J.J.Russo, I.Kant kabi mutafakkirlar o‘z qarashlari bilan bu terminning ilgargi huquqini tiklashdilar. Sh.L. Monteskyo (J.Lokk bilan bir vaqtda) vakillik demokratiyasining institusional asosini – hokimiyatning bo‘linish nazariyasini taklif qildi. Bu demokratiyani kashf etish edi, “Inson huquqlari deklaratsiyasi” (1791) esa demokratiyani davlat tashkiloti sifatida respublika shaklida rasman e’tirof etdi. Ushbu qarashni nemis olimi B.Guggenberger o‘zining “Demokratiya nazariyasi” maqolasida ham yoqlab chiqqan³.

19 asrda demokratiyaga nisbatan, umuman olganda, yana salbiy munosabat bildirila boshlandi. Jamoatchilik fikrida demokratiyaga nisbatan qaytadan ijobiy munosabat shakkanishi uchun mashhur fransuz davlat va siyosat arbobi A.Tokvil (1805-1859)ning “Amerikada demokratiya” kitobi paydo bo‘lishi katta turtki bo‘ldi.

¹ Качоха В. Проблема общего блага в современной демократии // Вопросы философии. – М. – 2000. – № 5. – С.321.

² Гофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. –Б.118-119.

³ Гуггенбергер Б. Теория демократии. // Полис. –1991. –№4. –Б.137.

A.Tokvil demokratiya deganda toifalar o'rtasidagi tafovutning yo'qolishi, fuqarolar siyosiy tengligining qaror topishini tushundi. 18 va 19 asrlardagi inqiloblar o'rta asrlardan meros bo'lib kelayotgan har bir kishining hokimiyat tizimi, nufuzi, madaniyatidagi mavqei aniq belgilanadigan tarixiy tuzilmalarga barham berdi¹.

Demokratiyaning etimologik ta'rifi bo'yicha "xalq hokimiyati" degan ma'noni bersa, uni nisbatan kengroq tushunish demokratiyaning – ikkinchi ma'nosini – keltirib chiqaradi. Unga ko'ra demokratiya – "boshqaruv va qarorlar qabul qilinishida a'zolarining teng ishtirokiga asoslanuvchi har qanday tashkilotning tuzilish shakli" deb e'tirof etiladi.

Uchinchi ma'noda demokratiya qadriyatlarning ma'lum bir tuzumiga asoslanuvchi ijtimoiy tuzim ideali sifatida tushuniladi va uning qadriyatlariga erkinlik, tenglik, inson huquqi, xalq suvereniteti va boshqalar kiritiladi.

To'rtinchi ma'nosida demokratiya xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun ijtimoiy va siyosiy harakatlar sifatida qaraladi. Hozirgi tushunishda demokratiya kamchilik huquqini himoya qilgan holda ko'pchilikning hokimiyatini, asosiy davlat organlarining saylanishini, fuqarolar huquqlari va siyosiy erkinliklarning mavjudligini, ularning teng huquqligini, qonunning ustivorligini, konstitusionalizm va hokimiyatning bo'linishini bildiradi².

Hozirgi zamon jamiyati o'zining murakkabligi, ko'psonliligi bilan bevosita demokratiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun bugungi kunda uning eng ko'p qo'llaniladigan shakli vakillik demokratiyasidir. Bunda fuqarolar siyosiy qarorlarni qabul qilish, qonunlarni ta'riflab berish hamda ijtimoiy farovonlik yo'lidagi dasturlarni hayotga tatbiq etish uchun rasmiy shaxslarni saylaydilar. Bu rasmiy shaxslar murakkab ijtimoiy muammolarni chuqur o'ylab, tartibli hal etishlari mumkin. Buning uchun ular boshqa xususiy shaxslar ega bo'la olmaydigan kuch va vaqtlarini sarflashlari kerak bo'ladi.

¹ Ўша жойда. –Б.119.

² Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.194-195.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948) qabul qilinganidan keyin dunyoda demokratiya uchun kurashning yangi to‘lqini boshlandi. Hozirgi vaqtda demokratiya - xalqni hokimiyat manbai, deb e’tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarining himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy hokimiyat tizimi, sifatida tushuniladi¹.

Shu jihatdan zamonaviy siyosatshunoslikda “demokratiya” iborasini to‘rt ma’noda qo‘llash uning mazmunini to‘liq anglashga xizmat qilishi mumkin:

- 1) asosiysi – xalq hokimiyati, “xalq boshqaruvi, xalq tomonidan saylangan va xalq uchun saylanish”;
- 2) a’zolarining boshqaruvdagi teng huquqli ishtiroki va ko‘pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qilishga asoslangan har qanday tashkilotning tuzilish shakli;
- 3) muayyan qadriyatlar tizimi, muayyan dunyoqarashga asoslangan ideal jamiyat tuzumi. Erkinlik, tenglik, inson huquqi va boshqalarni bu idealning tarkibiy qismlari qatoriga kiritadilar;
- 4) xalq hokimiyatiga intilgan ijtimoiy va siyosiy harakatlar, demokratik maqsad va ideallarni amalga oshirish².

Bundan tashqari bugungi kunda “demokratiya” konstitutsiyaviy-huquqiy tushuncha sifatida quyidagi elementlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- 1) davlat va ijtimoiy masalalarni hal etishda xalqning o‘zi boshqaruvni tashkil etadigan hayot va turmush tarzi bo‘lib, ularning ustidan hech kim rahbarlik qilmaydi. Ijro hokimiyati tizimidagi rahbar shaxslar va qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari xalq tomonidan saylanadi va ular oldida mas’uldirlar. Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan demokratiya – bu xalq hokimiyatchiligiga asoslangan davlat bo‘lib, o‘zining quyidagi institutlariga ega: oshkora amalda bo‘lgan davlat hokimiyat organlariga; davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi mas’uliyatni hokimiyatlarni taqsimlanishi tamoyiliga ko‘ra amalga oshirilishi, boshqaruvda umumdavlat, hududiy, shuningdek milliy manfaatlarni hisobga

¹ Политология: Учебное пособие / Под ред. Г.В. Полуниной. – М.: Акалис, 1998. – С.171-172.

² Гофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. –Б.120.

olinishi; saylovchilarning xohish-istaklarini erkin ifodalovchi, muqobillikka asoslangan saylov tizimiga; takomillashgan huquqiy tizimga ega ekanligi, jumladan rivojlangan qonunchilik va ixcham qonun chiqarish jarayoniga egaligi; qonuniylikni himoya qiluvchi organlar tizimining mavjudligi va shu kabilar;

2) shaxs erkinligi, ya'ni har bir insonning Konstitutsiyada va boshqa huquqiy aktlarda mustahkamlab qo'yilgan shaxsiy, umumiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari kafolatlanganligi va himoya qilish vositalarining mavjudligi;

3) Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan siyosiy plyuralizmning mavjudligi, ya'ni siyosiy institutlarning shakllanishida va davlat faoliyatida fuqarolarning turli ijtimoiy birlashmalarining ishtirok etish imkoniyati mavjudligi. Jamiyatda oshkoralikning mavjudligi, fuqarolarning muhim masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish huquqi, o'z fikrlarini bildirishi va qonuniy yo'l bilan fikrlarini qonun aktlarida hisobga olinishiga erishilishini ta'minlanganligi;

4) jamiyatga foydasi tegishini har bir fuqaro anglab yetishi, qonun loyihalarini muhokama qilishda, referendumda, saylovda va shu kabilarda ishtirok etishi zarurligini anglab yetishlari;

5) Konstitutsiyaviy tuzumning asosi sifatida demokratiya – bu intizom, shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatidir. Demokratiya anarxiya bilan, qonunlarga rioya qilinmaslik bilan sig'isha olmaydi¹.

Xulosa qilib aytganda, “demokratiya” tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi etimologik jihatda demokratiyaga nisbatan “xalq hokimiyati” sifatida qarashadi. Biroq, demokratiya mohiyatini turlicha tahlil etish, uning ijobiy va salbiy xususiyatlarini tanqidiy o'rganishga intilishlar kuzatilmoqda va bu ilmiy tortushuvlar yagona umume'tirof etilgan ta'rif shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Zamonaviy davrda demokratiya mamlakatda davlat hayotini demokratik asoslarda tashkil qilish; fuqarolarning keng huquq va erkinliklari mavjud bo'lishi; siyosiy plyuralizm va ijtimoiy tashkilotlarning xilma-xilligi; aholida davlat organlarini va

¹ <http://www.lex.uz/cuz/spr/lugat/d8.html>

mansabdor shaxslarni saylash uchun huquqi borligi; muqobillikka va raqobatga asoslangan saylov tizimining mavjudligi; davlat organlari faoliyatining oshkoraligi; qonuniylik tartibotining mavjudligi singari keng qamrovli ma'no va xususiyatlarga ega tushuncha sifatida e'tirof etilayotganligini kuzatish mumkin.

1.2. Demokratik siyosiy tizim shakllari va prinsiplari

Siyosatshunoslik fani doirasida bugungi kunda demokratik davlat boshqaruvi, demokratik siyosiy tizim shakllari va prinsiplarini ilmiy tadqiq etish davomida bir qator nazariy yondoshuvlar shakllanganligini kuzatish mumkin.

Siyosiy tizim va siyosiy demokratik jamiyat siyosiy hayotida o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy hodisalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Siyosiy tizim demokratiyaga qanchalik ta'sir etsa, demokratiya ham siyosiy tizimning rivojlanishiga shunchalik kuchli ta'sir qiladi¹. Olim Jozep Shumpeter ta'kidlaganidek, “demokratiya siyosiy metod bo'lib, siyosiy-huquqiy va ma'muriy qarorlar qabul qilishning muayyan bir institusional tashkiliy jihati hisoblanadi”². Shuningdek, olim Robert Dal ham o'z ilmiy qarashlarida demokratik boshqaruv shaklini yoqlab chiqqan va uning ijobiy jihatlarini tizimli holda talqin etgan³.

Hozirda demokratiyaning zamonaviy modellari mavjud bo'lib, ilmiy adabiyotlarda demokratiyaning 3 asosiy zamonaviy modeli keltiriladi: liberal, identitar, plyuralistik.

Mumtoz liberal demokratiya modeli: 2 muhim sohani: davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajratadi (XIX-XX asr boshlarida). Belgilari: a) hokimiyat manbai bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklargina (quyi tabaqa, ayollarsiz)

¹ Гафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сийосатшунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.118.

² Schumpeter J. Capitalism, Socialism, and Democracy. – New York: Harper, 1975. –P.148.

³ Каранг. Даль Р. Демократия и ее критики / Пер. с англ. под ред. Ильина М. В. – М.: РОССПЭН, 2003. – С.89-90.

kiritilgan. b) Individuallik, shaxsni hokimiyatning birlamchi va bosh manbai, deb bilishi ko‘zga tashlanadi.

Mumtoz liberal demokratiyaning o‘ziga xos belgilari:

1. Individuallik, hokimiyatning birlamchi va boshqa manbai deb shaxsning tan olinishi, davlat qonunlari ustidan individ huquqining ustivorligi. Shaxs huquqlarini himoya qilish maqsadida konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yiladi, ularning so‘zsiz bajarilishini mustaqil sud nazorat qiladi.

2. Erkinlikning siyosatda faol va teng huquqlari qatnashish imkoniyatlari emas, balki davlat va boshqa kishilar tomonidan aralashuvlardan saqlangan bo‘lishining passiv individual huquqi sifatida talqin etilishi.

3. Parlamentarizmning ustinlik qilishi

4. Davlat boshqaruvi va vakolati, asosan, jamoat tartibini, fuqarolar xavfsizligi va huquqini, ijtimoiy tinchlikni saqlash bilan chegaralanib, uning fuqarolik jamiyati ishlariga, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy jarayonlarga aralashmasligi.

5. Hokimiyat taqsimlanishi tamoyiliga amal qilish. Shu bois huquqiy davlatning eng muhim belgisi bo‘lgan hokimiyatning taqsimlanishi to‘g‘risi AQSh konstitutsiyasi ijodkorlaridan biri Aleksandr Gumilton (1757-1804) – odamlar hokimiyatini yaxshi ko‘radilar, hokimiyatni ko‘pchilikka bering, ular ozchilikni eza boshlaydilar. Shuning uchun ham hokimiyat ular o‘rtasida shunday bo‘linishi kerakki, toki har ikki tomon o‘zini boshqasidan himoya qila olsin degan.

6. Ozchilik ustidan ko‘pchilikning hokimiyatini cheklash, individual, guruhviy mustaqillikni hamma erkinlikni ta‘minlash. Ozchilik qat’iy belgilangan masalalardagina ko‘pchilikka bo‘ysunishga majburdir, boshqa hollarda esa to‘liq mustaqildir¹.

Identitar demokratiya modeli: ba’zi manbalarda uni jamoaviy yoki kollektivchilik, sotsialistik demokratiyasi tarzida ham qo‘llanilganligini kuzatish

¹ Одилокorieв Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.206.

mumkin¹. Belgisi: xalq, millat, sinf yaxlitligidan kelib chiqadi. Umumilliy belgilari:

1. Xalqni kollektivistik talqin etish, uni yagona, bir turdagi o'ektiv mavjud bo'lgan umumiy manfaat va irodaga ega bo'lgan butunlik sifatida tan olish.

2. Xalq ichida qarama-qarshlik kuchlarning yo'qligi, siyosiy muxolifatni duo'man yoki yot kuch sifatida baholash va uni kuch vositasida yo'q qilish.

3. Erkinlikni kollektivistik, davlat va jamiyat ichida faol, teng huquqli ishtirokchi sifatida tushunish.

4. Hokimiyatning amalda o'zini xalq bilan uyg'unligini ko'rsatish, ya'ni uning totalitar, barcha sohaga kirib boruvchi mutloq tabiatiga ega ekanligi, alohida shaxslarning himoyasizligi.

5. Davlat bir butunlik sifatida o'z tarkibiy qismlarining tinchligidan manfaatdor bo'lganligi sababli inson huquqlari masalasining umuman yo'q qilinishi.

6. Umumiy va siyosiy safarbarlik, fuqarolarning asosiy organlari va mansabdor shaxslarni qonun doirasida mustaqil va qabul qilingan qarorlar uchun mas'ul rahbarlar sifatida emas, balki xalq irodasini amalga oshiruvchilar, uning xizmatkorlari sifatida qarashlari.

7. Ijtimoiy demokratiyani targ'ib qilish, asosiy e'tiborini siyosiy huquqlarni yuridik jihatdan e'tirof etishdan fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etishlari uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratishga ko'chirish².

Plyuralistik demokratiya modeli. G'arb demokratiyasi liberal siyosiy tizimidan o'sib chiqqan. Plyuralistik demokratiya G'arbiy Yevropadagi postindustrial mamlakatlariga xos demokratiya bo'lib, u avvalari mavjud bo'lmagan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, guruh, hududiy manfaatlar va ularni ifodalash shakllarining turli tumanligiga asoslanadi. Bu manfaatlarni siyosiy partiyalar, turli uyushma va birlashmalar, jamoatchilik harakati, fuqarolarning tashabuskor guruhlari siyosat sahnasiga olib chiqadilar. Mazkur model xalqni

¹ “Жамоавий демократия” - Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.207; “Социалистик демократия” - Ғафуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.123.

² Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –Б.208-209.

tushunishda individualistik (mumtoz-liberal) va jamoaviy demokratiyalar o'rtasidagi oraliq mavqeni egallab, siyosatning bosh sub'ektlari sifatida individlarni emas, xalq ham emas, balki kishilarning turli guruhlarini tushunadi. Guruhlar yordamidagina shaxs o'zining siyosiy qarashlarini ifoda etadi va o'z manfaatlarini himoya qiladi. Xalq esa murakkab va ziddiyatli qism sifatida talqin etiladi. Ko'plab guruhlar –partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar hokimiyatga, hukmron guruhlar faoliyatiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Bu modeldagi demokratiyaning vazifasi – jamiyatdagi plyuralizmni rag'batlantirish, barcha fuqarolarga o'z qiziqishlarini ochiq ifodalash etish uchun birlashishga imkon berish, o'zaro kelishuvlar yordamida ularning siyosiy qarorlarda ifodalanuvchi ifodalanuvchi muvozanatini topishdir.

Zamonaviy demokratiya - xilma-xil ijtimoiy guruhlariga o'z manfaatlarini bayon etish raqobatli kurashda ularning muvozanatini aks ettiruvchi, murosamadoraga asoslangan boshqaruv shaklidir. Boshqa demokratik konsepsiyalar ham mavjud. Ular:

- Reprezentativ demokratiya - xalq oldida mas'ul, malakali vakolatli boshqaruv g'oyasiga asoslangan.
- Partisipatorlik demokratiyasi - boshqaruvda intellektual potensial.
- Demokratiya va Sharq. Sharq demokratiyasining o'ziga xosligi.
- Marksistik konsensiya
- Plebissitar konsepsiya (umumxalq fikri, referendum yo'li bilan)
- Elitar demokratik konsepsiyasi.

Shu jihatda demokratining mazkur konsepsiyalarni xalq boshqaruvida qanday ishtirok etishni, hokimiyat funksiyalarini kim va qanday bevosita ijro etishi bilan bohliq ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: to'g'ri, liberal (konstitutsiyaviy va plebissitar), vakillik (reprezentativ) va ijtimoiy shakllarga ajratish mumkin¹.

¹ Гафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сийосатшунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.123.

Vakillik demokratiyasi - demokratiyaning bir shakli bo'lib davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolarning vakillari orkali ishtirok etishidir. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarning vakilidir. Bunday demokratiyaning aniq ta'rifini nemis siyosatshunosi Ralf Darendorf demokratiya "xalq hokimiyati" emas, demokratiya xalq tomonidan saylanadigan, kerak bo'lsa uning o'zi chaqirib oladigan hukumat, bundan tashqari o'z yo'nalishiga ega bo'lgan hukumatdir deb ta'riflaydi. Bunday hukumat vakillik demokratiyalarida ikki usul: parlament va prezident boshqaruvi orqali shakllantiriladi.

Bevosita demokratiya - demokratiyaning bir shakli bo'lib, u har bir fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita - ya'ni shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko'rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyihalari va boshqa tadbirlarning muhokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig'ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Demokratiya qonunchilik sharoiti bilan uzviy bog'liq. Demokratiyalash jarayoni O'zbekistonda ham davom etmokda. Prezident Islom Karimov 1996 yil 29 avgustda Oliy Majlis 6-sessiyasida "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" xususidagi nutqida bu masalaga chuqur yondoshdi. Keyinchalik ham bu masalaga bir necha bor etibor berib kelmoqda. "Demokratiyaning eng muhim tamoyili, degan edi u, - odamlarning saylov huquqini, o'z xoxish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ruyobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim"¹ ligini bayon etgan edi.

Xalq xokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun real istiqboli ko'proq barqaror bo'lgan siyosiy tizim turi — demokratiyadir. Demokratik siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari:

¹ Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. –Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999.– Б. 64.

— fuqarolarning siyosatga keng jalb etilganligi, ular xuquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi, xayot darajasining yuqoriligi, rivojlangan oʻrta tabaqaning muxim roli;

— xokimiyatni amalga oshirishda xokimiyat institutlari va shaxslarning keng ishtiroki, siyosiy qatnashuvning oʻzaro musobaqa, raxbarlikning esa koʻppartiyaviylik shaklida tashkil etilganligi;

— xalq xoxish-irodasining parlament shaklida ifoda etilishi, qonun chiqaruvchi organlarning saylovlar asosida shakllantirilganligi;

— demokratik siyosiy madaniyat;

— davlatni boshqarishda qatnashishda fuqarolar xuquqlarining tengligi;

— xukmron va muxolif siyosiy partiyalarning mavjudligi;

— partiyalarning legal kurashi sharoitida shakllanadigan umumdavlat vakillik organi — parlamentning mavjudligi;

— partiyalarning saylovlardagi legal kurashi natijasiga koʻra hukumatning shakllanishi.

Jahondagi koʻplab mustaqil davlatlar qatori Oʻzbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga oʻtishning quyidagi bosqichlarini bosib oʻtganligini kuzatish mumkin. Ularning har biri Prezident Islom Karimov maʼruzalarida koʻrsatib berildi.

Birinchi bosqich. 1996 yil 29 avgust. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida. “Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazi-falari” deb nomlangan maʼruzasida demokratik jamiyat qurish bora-sidagi vazifalarni “chuqurlashtirish” vazifalari;

Ikkinchi bosqich. 1999 yil 14 aprel. Oliy Majlisning birinchi chaqiriq oʻn toʻrtinchi sessiyasida. “Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda” deb nomlangan maʼruzasida davlat va jamiyat qurilishi sohasini “erkinlashtirish” borasidagi vazifalar;

Uchinchi bosqich. 2002 yil 29 avgust. Oliy Majlisning ikkin-chi chaqiriq toʻqqizinchi sessiyasida “Oʻzbekistonda demokratik oʻzga-rishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy

yo‘nalishlari” deb nomlangan ma‘ruzasi-da demokratik o‘zgarishlar orqali fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish;

To‘rtinchi bosqich. 2005 yil 28 yanvar. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” deb nomlangan ma‘ruzasida mamlakatni modernizatsiyalash orqali jamiyatni demokratlashtirish vazifalarini belgilab berilgan edi¹.

Beshinchi bosqich. O‘zbekiston demokratik-huquqiy davlat barpo etish masalasi 2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ma‘ruzasi belgilab berilgan².

Takidlash joizki, so‘nggi yillarda demokratiyani sun‘iy targ‘ib etishga nisbatan urinishlar, uni ilmiy metodologik asoslarini ishlab chiqishga nisbatan urinishlar kuzatilayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Bunga misol tariqasi tashqi kuchlar tomonidan asosan postsovet mintaqasida amalga oshirilgan “rangli inqiloblar” seriyasini keltirish mumkin. “Rangli inqilob”lar – bu geostrategik va geosiyosiy kuchlar markazlarining manfaatlarini avj oldirish, u yoki bu davlatning ichki ishlariga aralashish, hokimiyat tepasiga qo‘g‘irchoq hukumatni keltirishning o‘ziga xos yo‘lidir. Asosiy maqsad – inqilobni moliyalashtirgan va uning qonuniyligini e‘tirof etgan tashqi kuch foydasiga geosiyosiy yo‘nalishni o‘zgartirishdir³. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimiz tomonidan: “Demokratiya asli erkinlik degani bo‘lsa, erkinlikni qanday qilib zo‘ravonlik bilan joriy etish mumkin?”⁴ – degan mantiqan izchil qo‘yilgan savolning o‘zida masalaning yechimi mavjuddir. Binobari, “Demokratiyani harakatlantiradigan

¹ Бўриева М. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –Б.92-93.

² Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi, 12.11.2010.

http://www.press-service.uz/uz/news/show/dokladi/koncepciya_dalneyeshego_uglubleniya_demo/ - 12.11.2010.

³ <http://www.press-info.uz> – 2006 йил 10 май.

⁴ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. –Т.:Ўзбекистон, 2006. –Б.13.

kuch – bu insondir. Demokratiya faqat xalq hokimiyati bo‘lib qolmay, u har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o‘z mamlakati kelajagi, o‘z taqdiri oldidagi mas’uliyati hamdir”¹.

Ma’lumki, jamiyat tizim sifatida doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘ladi. Uning rivojlanishi xaostik, ya’ni tartibsiz ravishda emas, balki muayyan qonunlar asosida amalga oshadi. Demak, har qanday ijtimoiy tizim elementlarining o‘zaro munosabatlari va pirovard natijada ularning individual rivojlanishi muayyan qonunlar hamda qonuniyatlar asosida amalga oshadi. “Demokratik jarayonlar,- deydi Islom Karimov, - o‘z ob’ektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Ularni o‘rganib borish, ularga amal qilish talab etiladi”². Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy voqelikka har xil modellarni zo‘rlab tiqishtirish mumkin emas. Chunki demokratiya har bir davlatning turmush darajasidan kelib chiqib, aql-idrokka tayanmog‘i lozim.

O‘zbekistonning o‘ziga hos demokratik jamiyat barpo etish yo‘lidan og‘ishmay izchil borishida quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi:

birinchidan, O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishida faqat sharqona yoki g‘arbona usullarga rioya qilishimiz kerak degan kategorial xususiyat hozirgi davrning murakkab va geosiyosiy jarayonlariga mos kelmaydi. Shu nuqtai nazardan, umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarni o‘zida mujassam etgan holda, milliy mafkuramiz tamoyillariga tayanib demokratik jamiyatni shakllantirish lozim;

ikkinchidan, respublikamizda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida avvalo jahon sivilizatsiyasi manfaatlariga mos keladigan, yuksak sharqona madaniyatga asoslanadigan yangicha yashash tamoyillarini ta’minlash; O‘zbekistonda ma’naviyat, mafkura, milliy g‘oya va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyatiga yangicha qarash; mamlakatimizda irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, e’tiqodi va maslagidan qat’i nazar barcha fuqarolarning hamjihatligiga

¹ Энг катта бойлигимиз – тинчлик ва барқарорликни асрайлик. // Қ.Назаров муҳаррирлигида. –Т.:Академия, 2006. –Б.10.

² Каримов И.А. Демократия – бош йўлимиз. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. –Т.3. –Т.:Ўзбекистон, 1996. – Б.8

asoslanadigan, ijtimoiy hamjihatlikni muttasil va uzluksiz ta'minlab turishi ehtiyojini o'zida ifodalaydigan milliy g'oya samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalarning dolzarbligiga e'tibor qaratish lozim;

uchinchidan, barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan, ularning o'ziga hos xususiyatlarini to'la aks ettirgan yakkayu yagona demokratiyaning universal modeli insoniyat tarixida mavjud bo'lmagan va mavjud bo'la olmaydi. Faqat ijtimoiy hodisa va jarayonlarning u yoki bu shaklini modellashtirish jamiyat rivojlanishini qonuniyatlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Demokratiyani fuqarolarning haq-xuquqi va erkinligi deb tushunadigan bo'lsak, unda bu erkinlikni qandaydir modellashtirish yo'li bilan joriy etish mumkin emasligini anglagan holda demokratik islohotlarni og'ishmay amalga oshirish talab etiladi;

to'rtinchidan, O'zbekistonda kechayotgan demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda, qandaydir tashqi ta'sirlar asosida tezlatish yoki bu jarayonni sekinlashtirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz Prezidenti tomonidan bunday oqibatlarning oldini olishga doir ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, shuningdek, jamiyat taraqqiyotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalarni chuqur tahlil qilish zaruriyatini ko'rsatadi;

beshinchidan, demokratik jamiyat barpo etish ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Uning qaror topishida g'oyaviy jarayonlar ham katta o'rin egallaydi. Shunday ekan, milliy g'oyani demokratik jamiyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ilmiy tadqiq etish jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga hos bo'lgan hususiyatlarni chuqurroq anglab yetish imkonini beradi

Xulosa qilib aytish mumkinki, demokratiya bugungi kunda davlat boshqaruvining eng muvafaqqiyatli modeli bo'lib, siyosiy tizimni demokratlashtirish va inson huquqlari ustivorligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish demokratiyaning umume'tirof etilgan va tarixiy sinovdan muvafaqqiyatli o'tgan prinsiplariga asoslanishi lozim. Chunki bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan demokratiyaning barcha modellari o'z

ijobiy va salbiy jihatlariga ega, barcha davlatga mos yagona universal modeli mavjud emas. Demokratiyaning ma'lum bir me'yorlari bo'lsa-da, u har bir xalqning tafakkur tarzi, voqea-hodisalarga munosabati, uni baholash mezoni, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. Demak, demokratiya qandaydir tiqishtirilgan modellar asosida emas, balki har bir millat qurayotgan davlat va jamiyat bilan birga shakllanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-BOB. HINDISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI VA JAMIYAT HAYOTINI DEMOKRATLASHTIRISHNING ASOSIY JIHATLARI

2.1. Hindistonda demokratiya rivojlanishining asosiy bosqichlari

Hindistonda demokratik tamoyillar ilk elementlarining qaror topishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. O'tmishda demokratik tushunchalarning dastlabki ko'rinishlari shakllangan. Zamonaviy davrda Hindistonda demokratik tamoyillarning rivojlanib borishi mustqillik yillaridan to bugungi kunga qadar davom etgan qaryib yarim asrni qamrab oladi. Hindiston ko'p millatli, murakkab ijtimoiy qatlamga ega davlat hisoblanadi. Hindistonda demokratiyaning mohiyati mamlakat siyosiy an'analari orqali tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar Hindistonda demokratiya tamoyillarning kirib kelishini mustamlakachilik siyosati bilan bog'lashadi. Xususan, Hindistonning uzoq yillar davomida jahondagi eng demokratik tipdagi davlat hisoblangan Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy tartibotlarga o'z ta'sirini o'tkazgan¹. Hindistonda G'arbda ta'lim olgan J.Neru singari siyosiy elitalarning shakllanishi, Kongress yetakchiligidagi jamoa harakatlarning demokratik faoliyati, mustaqillik uchun o'tkazilgan saylovlarda Kongressmenlarning ishtirok etishi demokratiyaning rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan deyish mumkin².

Mamlakat mustaqilligidan so'ng jamiyat va davlat qurilishini amalga oshirishini faqatgina siyosiy an'analari orqali tashkil etish o'z samaradorligini ma'lum darajada yo'qotdi va bevosita mustamlakachilik siyosiy tizimining ijobiy jihatlari siyosiy hayotga tadbiiq etish zarurati paydo bo'ldi. Natijada 1947 yil Hindiston Ozodlik Harakati yetakchilari demokratiyani tanlaganliklari uchun mustamlaka davridagi boshqaruvni amalga oshirishda ayblanib, qoralana boshlandilar.

¹ See. Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.38-39.

² Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. –Vol.2. –P.94.

Aytish mumkinki, Britaniya imperiyasi Hindistonda boshqaruvni amalga oshirishda demokratik prinsiplarga muayyan darajada e'tibor qaratdi, xususan, ma'muriy birliklar boshqaruvida an'anaviy xususiyatini saqlab qoldilar va ichki ishlariga to'liq aralashmadilar. 1880 yillardan boshlab Hindistonda siyosiy uyg'onish jarayoni yuz bera boshladi. 1885 yilda Britaniya sobiq Fuqarolik xizmati hodimi Alan Oktavian Xyum tomonidan hind manfaatlarini imperiya markaziga tizimli tartibda yetkazish maqsadida Hindiston Milliy Kongressi tashkil etildi. Keyinroq Hindiston Milliy Kongressi mamlakatning o'rta sinflari uchun mustamlaka hukumatidan ko'proq ish o'rinlarini muntazam talab qilib borish va siyosiy jarayonlarda kengroq ishtirok etishida yetakchi institutga aylandi¹.

Hindistonda ilk saylov tajribasi 1882 yilgi Mahalliy o'z-o'zini boshqaruv Rezolyusiyasida (Resolution on Local Self-Government) va 1892 yilgi Hindiston Kengashi Aktida (Indian Councils Act) namoyon bo'la boshladi. Ikki xujjat juda cheklangan saylov vakolatini taqdim etgan bo'lib, unda boylik senzi o'rnatilgan edi. To'g'ridan-to'g'ri saylov tamoyili 1919 yilgi Hukumatning Hindiston Aktida belgilab berilgan va darhol mahalliydan to milliy darajagacha bo'lgan barcha siyosiy jarayonlarga tadbiq etildi. Ushbu siyosiy erkinlik mamlakat aholisining 2-4% qismiga saylovchi maqomiga ega bo'lish imkoniyatini yaratdi. 1937 yilda 1935 yilda qabul qilingan Hukumatning Hindiston Aktiga binoan savodxonlik ham saylovda ishtirok etishning asosiy talablardan biri sifatida belgilab o'tildi, bundan tashqari ilk bor hind siyosatchilari ma'muriy birliklar –shatatlar qonunchilik institutlarida siyosiy kuchga ega bo'lish imkoniyatini ham qo'lga kiritishdi.

Mustaqillik arafasida Hindistonda taxminan 40 millionga yaqin saylovchilar mavjud edi. Buni 1946 yil Konstitutsiyaviy Assambleyaga bo'lib o'tgan saylovlardan ham kuzatish mumkin, unda aholining 14%i ishtirok etish huquqiga ega bo'lishgan. Saylov huquqiga ega bo'lganlarning 39%igina mazkur ovoz berish jarayonida ishtirok etgan xolos.

Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng 1951-1952 yillarda ilk bor Parlamentning Qonunchilik palatasi – Lok Sabhaga o'tkazilgan saylovlarda

¹ Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.39-40.

umumiy yosh senziga amal qilingan. To hozirgacha Lok Sabha uchun o'tkazilgan 14 marta umumiy saylovlarda aholining siyosiy jarayonlardagi ishtirok yuqori ko'rsatkichda ekanligini kuzatish mumkin. Ta'kidlash joizki, Hindiston mutaqqilligining dastlabki yillaridan boshlab Hindiston Milliy Kongress partiyasi siyosiy hayotda yetakchi partiyaga aylandi va siyosiy raqobatning shakllanishida muhim rol o'ynay boshladi.

E'tirof etish kerakki, Hindistonda demokratiyaning rivojlanishida siyosiy partiyalarning o'zni katta ahamiyatga ega. 1951-52 yillarda Hindiston konstitutsiyasi 170 million ahaoliga o'z hukumatlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini berdi. Endilikda aholi o'z manfaatlarini turli siyosiy guruhlar, harakatlar va partiyalar orqali bildirishga intila boshladilar. Shunga qaramay Hindistonda ko'p hollarda siyosiy partiyalarga nisbatan mamlakatda aholi o'rtasidagi sun'iy bo'linishni yuza keltirmoqda va jamiyatda deintegratsiya jarayonini kuchaytirmoqda degan qarashlar ham uchrab turadi. Biroq bu avvalo siyosiy partiyalar faoliyati bilan emas, balki Hindiston ijtimoiy hayotida tarixan shakllanib kelgan turli diniy-etnik qatlamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda jamiyatdagi deintegratsiya tendensiyasining siyosiy oqibatlarini nazorat etish siyosiy partiyalarning funksiyalaridan biriga aylanib bormoqda.

Hindistonda partiyaviy tizim "dominant partiya tizimi" ("dominant party system") doirasida boshlangan bo'lib, uning markaziy qismida Hindiston milliy Kongressi (HMK) yetakchi o'rinni egallagan. Olim Kotxari e'tiroficha, Hindiston Milliy Kongressi Ozodlik Xarakatining merosxo'ri bo'lib, mamlakatning asosiy institutlaridan biri sanaladi¹. Keyingi yillarda Kongress partiyasining ta'siri cheklangan bo'lsada, Hindistondagi barqaror siyosiy tartibotning shakllanishida uning o'zni katta ahamiyatga ega ekanligi olim tomonidan ta'kidlanadi.

Siyosiy tizim esa nisbatan Kongress tizimi deya ko'rilgan. "Dominant partiya tizimi" shu ma'noni anglatadiki, unda partiyalar o'rtasida erkin raqobat muhiti mavjud, biroq Hindiston Milliy Kongress partiyasi ustun mavqega ega

¹ Kothari R. Continuity and Change in the Indian Party System // Asian Survey. –1970. –№10 (11). –P.53.

hisoblanadi: mamlakat parlamentdagi o‘rinlar soniga ko‘ra, shtatlar ya’ni ma’muriy birliklardagi qonunchilik kengashlarida yetakchilik qilishga ko‘ra. Buni 1952-1977, 1980-1989, 1991-1996 yillar Kongress partiyasining mamlakatda boshqaruvchi kuchga aylanganligi bilan izohlash mumkin. 1977 yildan boshlab mamlakatda samarali faoliyat yurituvchi o‘zaro raqobatdosh ko‘p partiyali tizim yuzaga keldi¹.

Hindistonda partiyaviy tizim bitta yirik partiya atrofida o‘zga kichik partiyalarning vujudga kelishi orqali shakllangan, bu real raqobat muhitining shakllana olmasligini ko‘rsatadi. Shu bois yuqori darajadagi mansabdor shaxslar garchi partiyaning siyosiy qarashlari bilan chiqisha olmasada partiya a’zosi bo‘lishi yoki Kongress partiya bilan hamkorlikdagi o‘zga kichikroq partiya vakili bo‘lishi zarur hisoblanadi. Boshqa tomondan Kongress partiyaning o‘zga partiyalar bilan ittifoqqa birlashishi ularni va siyosiy jarayonlarni o‘z nazorati ostida tutib turish imkoniyatini beradi.

Hindiston Milliy Kongress partiyasi mamlakatda yetakchi siyosiy mavqeni egallasa-da, partiya ichida o‘zaro bo‘linishlar ham muntazam kuzatilib turiladi. Bu partiyaning yagona g‘oyalarini samarali amalga oshirishdagi asosiy to‘siq sanaladi. Bugungi kunga qadar birorta demokratik tizimda yagona partiya raqobat muhitida demokratik saylovlarda ishtirok etgan holda o‘z raqiblari ustidan ulkan muvaffaqiyatlarga erishishi kuzatilmagan. Biroq bunday muvaffaqiyat ham HMK partiyasiga o‘zining barcha muammolarini yengib o‘tishiga imkon bermadi. Ushbu izohlar Hindiston milliy kongressi partiyasining 1980 yillarga bo‘lgan davrdagi asosiy xususiyatlarini ochib beradi.

Keyingi yillarda HMK partiyasidagi ichki nizolar va oppozision partiyalarning faoliyati sababli mamlakatda yetakchi mavqega ega bo‘lgan partiyalar shakllana boshlandi. Lok Sabhaga bo‘lib o‘tgan 1996, 1998 va 1999 yillardagi saylovlar partiyaviy tizimning markazlashmaganlik holati ko‘rsatdi. Saylovlarda ikki yirik Hindiston Milliy Kongressi partiyasi va Bxaratiya Janata

¹ Kohli A. India’s Democracy. An Analysis of Changing State-Society Relations. –New Jersey: Princeton University Press, 1990. –P.145-147.

Partiyasi 50 ovoz to'plagan bo'lsa, parlamentdagi qolgan depututlik o'rinlari bir qator kichik partiyalar tomonidan taqsimlanib olindi¹. Bu esa 1990 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, kichik siyosiy partiyalar ham shtatlar siyosiy maydonida o'z mavqelariga ega bo'la boshlaganliklarini ko'rsatadi. Ular qatoriga Andra Pradesh shtatida Telugu Desam partiyasi, Tamil Nadu shtatida Dravida partiyasi, Panjobda Akali Dal partiyalarini kiritish mumkin

Hindistonda HMK partiyasining siyosiy ta'sirini qisqartirish intilish asosan Bxaratiya Janata partiyasi tomonidan amalga oshirilgan va 1980 yillardan so'ng Hindistonda ikki partiyali tizim shakllana boshlandi. Bxaratiya Janata Partiyasi (BJP) (Bharatiya Janata Party (BJP)) 1990 yillardan boshlab Hindistonda partiyalar o'rtasidagi raqobat muhiti keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Bxaratiya Janata partiyasi 1996, 1998 va 1999 yilgi saylovlarda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ushbu partiyaning ta'sir doirasi ortib borishi ikki tarixiy xususiyati bilan ajralib turadi: *Birinchidan*, partiya hind fundamentalizmi negizida rivojlanganligi; *ikkinchidan* J.Neru va Sh.Gandi boshqaruv davrida Hindiston Milliy Kongress partiyaning mutloq yetakchiligiga qarshi keng qarshiliklarni amalga oshirishga rahbarlik qila olganligi. 1989 yildan boshlab Bxaratiya Janata partiyasi ikkinchi asosiy siyosiy partiyaga aylandi, ammo HMK partiyasi singari hukumatni yolg'iz o'zi boshqarish uchun yetarlicha imkoniyatga ega emas, shu bois doimo ushbu partiya shatatlardagi kichik partiyalar bilan hamkorligiga qaram hisoblanib kelgan.

Bxaratiya Janata partiyasi asosan jamiyatdagi hind nasionalistlari va shu ruhdagi qatlamlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Partiya asosiy siyosatini mamlakatdagi millatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, xususan, hind va musulmonlar munosabatlaridagi keskinligini yengillatishga intilishi partiyaning obro'sini oshishiga xizmat qilmoqda. Natija 1999 yilgi Lok Sabhaga bo'lgan saylov BJPning ikkinchi hind partiyasi sifatida e'tirof etdi.

Qolgan hind siyosiy partiyalari asosan mayda partalar bo'lib, ular siyosiy hayotda ikki yirik partiyalarni birortasi bilan koalisiya kirishib faoliyat yuritadi.

¹ Palekar S.A. Constitution and Parliamentary Democracy in Contemporary India. –Jaipur: ABD Publishers, 2002. – P.78-7-81.

Hindiston kommunistik partiyasi, Janata Dal partiyasi, Baxujan Samaj partiyasi, Rashtriya Janata partiyasi, Samajvadi partiyasi shular jumlasidandir. Ular orasidan faqatgina kommunistik partiya milliy darajada faoliyat yuritib, qolganlari o'z mintaqalaridagina muayyan siyosiy mavqega ega.

2006 yilda Iqtisodiy razvedka birlashmasi (The Economist Intelligence Unit) tomonidan o'tkazilgan davlatlarning demokratik indeksiga ko'ra Hindiston jahondagi davlatlar orasida 36 o'rinni egallagan. Bu juda yaxshi ko'rsatkich sanalib, mamlakatda demokratik tamoyillar jadal rivojlanayotganligini anglatadi. Hindiston 10 ballik yuqori ko'rsatkichdan 7.68 bal to'plagan. Mazkur tadqiqot beshta ko'rsatkich asosida tuzilgan:

1. Saylov jarayoni va plyuralizm – 9.58 ball;
2. Fuqaro erkinliklari – 9.41;
3. Hukumat faoliyati – 8.21;
4. Siyosiy ishtirok – 5.56;
5. Siyosiy madaniyat – 5.63.

Aytish mumkinki, tashkilot tadqiqotiga ko'ra Hindistonda demokratik qadriyatlarning qaror topishida siyosiy ishtirok va siyosiy madaniyat nisbatan past ko'rsatkichda bo'lib, kelgusida aholining siyosiy jarayonlarda faolligini yanada oshirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan¹.

Hindistonda demokratiyaning rivojlanishini tahlil etgan olimlar ijobiy fikrlar bilan bir qator salbiy munosabatlarini bildirgan. Ular mamlakatda anarxiyaning ba'zir jihatlari mavjudligini ta'kidlashmoqdalar². Ularning fikricha, demokratiya ichki va tashqi barqaror siyosat yuritish omili bo'lishi zarur. Hindistondagi diniy-etnik nizolar va tashqi urushlar mamlakatdagi demokratik tamoyillarni cheklayotganligi borasidagi qarashlar ham mavjud³. Buning sababi sifatida dinlar va kastalar o'rtasidagi zo'rovonliklarning tez-tez yuz berib turishini keltirishadi. Buning tarixiy ildizi 1947 yildagi Britaniya Hindistonida amalga oshirilgan hududiy bo'linishga borib taqaladi. Mazkur siyosat natijasida

¹ www.economist.com/media/pdf/DEMOCRACY_INDEX_2007_v3.pdf

² Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –P.45-47.

³ Tumulec M. The stability of multi-party democracy in India - 14 October 2007

mamlakatda qarama-qarshilik nuqtalari vujudga kelib qolgan. Bihardagi kastalar o'rtasidagi fuqarolik urishlari, Panjobda markaziy hukumat va sikhlar o'rtasidagi to'qnashuvlar; Uttar Pradesh shtatidagi hindlar va musulmonlar o'rtasidagi nizolar buning yaqqol namunasi.

Hindiston demokratiyaning yana bir asosiy jihati shundan iboratki, "uchinchi dunyo" mamlakatlarida mavjud demokratik elementlarning katta qismi bevosita hind demokratiyasiga yaqindir. Ushbu holat Hindistonda demokratiyaning o'ziga xos tamoyillar asosida rivojlanayotganligini anglatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda quyidagi tarixiy jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, Hindistonda demokratiyaning zamonaviy tamoyillarining qaror topishi Buyuk Britaniya imperiyasi mustamlakachiligi, davlat boshqaruv tizimida qo'llagan tajribasi bilan bog'liqdir. Mamlakatning mustaqillikka erishishi Hindistonda demokratik davlat barpo etish imkoniyatini yaratdi;

Ikkinchidan, Hindiston siyosiy elitasining katta qismi G'arb an'analari asosida ta'lim olganligi va ulardagi g'arb davlatchilik tajribasi bilan yaqindan tanishligi mamlakatda mustaqillik yillaridan so'ng demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi;

Uchinchidan, mustaqillik yillaridan keyingi davrda mamlakatda Hindiston Milliy Kongress partiyasining yuqori mavqeni egallashi va 1990 yillarga qadar o'z ta'sirini saqlab qolishi, uning bugungi kunda Bxaratiya Janata partiyasi bilan raqobati ikki partiyali tizimning shakllantirganligi ham demokratiya rivojlanishining asosiy jihatlarini belgilab berdi.

To'rtinchidan, Hindistondagi demokratik tartibot sharoitida anarxiyaning saqlanib qolganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilishi. Bunda asosiy e'tibor mamlakatning ichki va tashqi siyosatida beqarorlik elementlarining mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. Ular qatoriga hind-musulmon munosabatlari, sikh ayirmachilik faoliyati, Pokiston bilan bo'lib o'tgan urushlarni keltirish mumkin. Biroq mazkur yondoshuvlar nisbatan tarixga daxldor bo'lib, hozirgi kundagi

Hindistondagi siyosiy tizimni demokratik tamoyillarga asoslanmagan deb xulosa berish maqsadga muvofiq emas va bir tomonlama qarash hisoblanadi.

2.2. Hindistonda demokratik davlat boshqaruvinining shakllanishi

Hindiston Janubiy Osiyo mintaqasida joylashgan, o'zining geostrategik joylashuvi va hududiy xajmi, iqtisodiy, harbiy salohiyati jihatdan mintaqaning eng yirik davlati hisoblanadi. Shuningdek, Hindiston BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zoliciga asosiy davogar davlatlardan biri sanalib, yadroviy qurolga ega mamlakatdir. Shu jihatdan Hindistonning nafaqat tashqi siyosati, Janubiy Osiyo va jahondagi o'rnini o'rganish, balki mamlakatdagi ichki siyosiy jarayonlar, xususan, demokratiyaning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish ham dolzarb sanaladi.

Hindiston bugungi kunda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha jadal rivojlanayotgan davlat hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish 1992 yildan yiliga o'rtacha 6.5%ni tashkil qilmoqda. 90-yillarning oxiriga kelib Hindiston YaIM bo'yicha AQSh, Xitoy, Yaponiya va Germaniyadan keyingi 5 o'rinni egallagan bo'lsa, 2000 yillarning o'rtalariga kelib, shu ko'rsatkich bo'yicha Germaniyani ortda qoldirdi. Mamlakatda 1991 yildan beri o'tkazilib kelinayotgan iqtisodiy islohotlar, G'arb davlatlari tomonidan yirik bozor sifatida va mamlakatga nisbatan global biznes darajasida qiziqish uyg'otdi. Hindiston iqtisodi tez suratda o'sib kelayotgan 10ta mamlakat qatoriga kiradi¹.

Hindiston davlat boshqaruv shakliga ko'ra federativ respublika, mamlakat 28 shtat va yettita hududiy ittifoqlardan iborat. Hindiston davlat boshqaruvi demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, davlat hokimiyati bo'linishi ko'pgina davlatlar qatori ijroya, qonunchlik va sud hokimiyatiga bo'linadi. Hindistonda

¹ Хакимова Н. Ҳиндистон ва Марказий Осиё минтақаси: ҳамкорлик истиқболлари // Шарқшунослар анжумани. –Т. –№.5. –Б.103.

bunday demokratik tizimning shakllanishi davlat mustaqillikgining ilk kunlaridan boshlab amalga oshrila boshlangan.

Davlat rahbari mamlakat prezidenti hisoblanib, ijroya hokimiyatni bevosita Bosh vazir amalga oshiradi.

Hindistonda mamlakat Prezident instituti ijroya hokimiyatga ta'siri cheklangan bo'lsada, bevosita unga rahbarlik qilish vakolatiga ega. Mamlakat konstitutsiyasining 53(1) moddasiga binoan o'zining ijroya hokimiyati borasidagi vakolatlarini amalga oshirishi mumkin. Konstitutsiyaning 74 moddasiga asosan Prezident hukumat rahbari ya'ni Bosh vazir va uning mahkamasi bilan maslahatlashgan va kelishgan holda mamlakat ijroya hokimiyatiga ta'sir etishi mumkin¹.

Prezident parlamentning qonunchilik palatasi Lok Sabhada eng ko'p deputatlik o'rinni ko'lga kiritgan partiya vakilini Bosh vazir sifatida tayinlaydi va Bosh vazir tavsiyasiga binoan qolgan vazirlarni tayinlaydi. Vazirlar mahkamasi Lok Sabha tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Agar Prezident o'z tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasini tarqatib yubormoqchi bo'lsa, bu hatti-xarakat mamlakatda konstitutsiyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. Shuning uchun amaliyotda parlament tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan hukumatni tarqatib yuborishi juda mushkul holat hisoblanadi.

Bundan tashqari Hindistonda Prezident bir qator mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlay oladi:

- Shtatlar gubernatorlarini;
- Bosh sudya va Hindiston Oliy hamda Yuqori sudlarining boshqa sudyalarini;
- Bosh Prokurorni;
- Prezident devoni rahbarini;
- Saylov komissiyasini rahbari va davlat kotibini;
- Jamoat xizmati ittifoqi rahbari va uning a'zolarini;

¹ See. The Constitution of India (As modified up to the 1st December, 2007). Article 74. // Government of India. Ministry of Law and Justice // <http://lawmin.nic.in/coi/coiason29july08.pdf> - 29 July 2008.

- O'zga mamlakatlarga elchilarni tayinlash vakolatiga ega¹.

Prezident shuningdek o'zga mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini qabul qiladi va Hindiston qurolli kuchlarining Bosh qo'mondoni hisoblanadi. Hindiston Prezidenti ayniqsa o'limga hukm etilgan shaxslarni bir matra kechirishi yoki jazo muddatini qisqartirish vakolatiga ega. Prezident o'zining amnitsiya yoki boshqa vakolatlarini Bosh vazir yoki Lok Sabha munosabatisiz mustaqil ravishda amalga oshirishi oladi. Amalyotda esa ko'p hollarda Prezident ijroya masalasida mamlakat Bosh vaziri tavsiyasiga tayanadi.

Hindiston davlat boshqaruvi xususiyati shundan iboratki, mamlakatda Vitsa-prezident lavozimi ham mavjud bo'lib, unga bevosita rahbarlikni parlamentning yuqori palatasi – Rajya Sabha raisi amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, Hindistondagi vitsa-prezident o'rni mamlakatimizdagi O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi Senatining raisi vakolatlariga doir vazifalarni ham kuzatish mumkin, chunki mamlakatimizda vitsa-prezidentlik lavozimi o'z maqsadlarini oqlamagan. Shu bois Hindistonda Vitsa-prezident agar mamlakat rahbari vafot etsa, lavozimidan ozod bo'lsa yoki voz kechgan sharoitda olti oy ichida Prezident saylovlari tashkil etilgunga qadar Hindiston prezidenti vazifasini bajaradi. Bu vaqtda Prezident Rajya Sabha ya'ni senat raisi vazifasini bajarishi mumkin emas. Bundan tashqari Vitsa-Prezidentga ishonchsizlik bildirish yoki uni lavozimidan chetlatishda Rajya Sabha katta vakolatga ega bo'lib, uni Lok Sabha (qonunchilik palatasi) bilan kelishgan holda amalga oshiradi².

Hindistonda hukumat rahbari Bosh Vazir bo'lib, bevosita davlatning ijroya hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Hukumat Vazirlar Kengashi deb nomlanadi. Bosh vazir hukumat tarkibidagi vazirlarni tayinlash va ularni lavozimidan ozod qilish vakolatiga ega. Hindistonda agar Bosh vazir birorta partiya vakili bo'lmasa, olti oy ichidan Lok Sabha a'zosi bo'lishi shart. Bosh Vazirni davlat Prezidenti tayinlaydi. Hozirgi Bosh vazir Manmoxan Singx bo'lib,

¹ Ministry of Law and Justice, Government of India: Constitution of India, updated up to 94th Amendment Act, page 26 // <http://lawmin.nic.in/coi/coiason29july08.pdf>

² See. Council of States (Rajya Sabha) - http://rajyasabha.nic.in/rsnew/council_state/council_state.asp; Vice-President of India - <http://vicepresidentofindia.nic.in/const.asp>

2004 yil 22 maydan buyon hukumat rahbari sanaladi, Hindiston Milliy Kongress partiyasidan.

Hindiston Konstitutsiyasining 53 (1) moddasida ijroya hokimiyat Prezidentga tegishli bo'lib, uni o'zi yoki subordinatsiya tartibida boshqa organ amalga oshirish mumkinligi qayd etilgan. 74 (1) moddasiga asosan Bosh vazir va Vazirlar Kengashi mamlakat Prezidenti o'z faoliyatini amalga oshirishda maslahat berishi va ko'maklashishi zarurligi belgilab berilgan.

Biroq, ko'pgina boshqa paramentar demokratik tizimlar singari Hindistonda ham davlat rahbari faqatgina nisbiy bo'lib, real ijroya hokimiyat Bosh vazir vakolati doirasiga kiradi¹.

Hindiston Bosh Vaziri lavozimining yana bir xususiyati shundan iboratki, u bevosita hukumatdagi ikki vazirlik va ikki departamentga rahbarlikni shaxsan o'zi amalga oshiradi. Bular:

1. Kadrlar, jamoat xizmati va nafaqa vazirligi;
2. Rejalashtirish vazirligi;
3. Atom energiyasi bo'yicha departament;
4. Koinot masalalari bo'yicha departament².

Shuningdek, Bosh Vazir turli davlatlarga rasmiy tashriflarni amalga oshirishi, o'zga davlatlar bilan aloqalar olib borishi mumkin. Bundan tashqari Hindistonda Bosh vazir yuridiksiyasi ostida ikki fond - Bosh vazir Milliy qutqaruv fondi va Bosh Vazir Milliy mudofaa fondlari mavjud³.

Hindiston parlamenti ikki palatadan iborat bo'lib, yuqori palata – Rajya Sabha, quyi palata – Lok Sabha deb nomlanadi.

Parlamentning yuqori palatasi – Rajya Sabha (Shtatlar Kengashi) davlatimizdagi Oliy Majlis Senatiga o'xshash palata hisoblanadi. Mazkur palata 1919 yilda shakllangan. Hindiston Konstitutsiyasining 80 moddasiga binoan Rajya Sabha 250 a'zodan iborat bo'lib, undan 12 tasi bevosita Prezident tomonidan

¹ Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. March/April 2007. –P.43 // <http://www.fpri.org/footnotes/1605.201106.ganguly.india.pdf>

² The Constitution of India (As modified up to the 1st December, 2007). Article 52-53. // Government of India. Ministry of Law and Justice // <http://lawmin.nic.in/coi/coiason29july08.pdf> - 29 July 2008.

³ Лок Сабха палатасининг расмий сайти. Lok Sabha (House of the People) - <http://loksabha.nic.in>

tayinlanadi. Qolgan a'zolar bevosita shtatlar va ikki hududiy ittifoqlar (Dehli va Puducherri) tomonidan nomzod sifatida yuboriladi. Rajya Sabhaning uchdan bir a'zosi har ikki yilda saylanadi va vakolat muddati 6 yil. Prezident tomonidan tayinlanadigan 12 nomzod mamlakatda fan, madaniyat, san'at va jamoat arboblari orasidan yuksak xizmat ko'rsatganlar orasidan tanlab olinadi. Konstitutsiyaning 84 moddasida nomzodlar quyiladigan talablar belgilab berilgan.

Hindiston parlamentining quyi palatasi, ya'ni qonunchilik palatasi Lok Sabha deb nomlanib, uning deputatlari bevosita xalq tomonidan umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Lok Sabhadagi deputatlik o'rinlari 522 tani tashkil etib, ulardan bevosita 530 tasi shtatlar tomonidan, 20 tasi hududiy ittifoqlar tomonidan va 2 ta deputat Anglo-hind jamiyatidan saylanadi. Hindiston parlamentar respublika bo'lganligi bois manbalarda parlamentar demokratiya deb ham ta'riflanadi. Lok Sabha bevosita qonunchilik masalalari bilan shug'ullanuvchi palata bo'lib, mamlakat hukumatini shakllantirishida hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Mamlakat Bosh vaziri va hukumat saylovlarda ushbu palatada eng ko'p deputatlik o'rinlarini egallagan partiya vakillari tomonidan shakllantiriladi va Konstitutsiyaning 75(3) moddasiga binoan Vazirlar Kengashi ya'ni hukumat Lok Sabha oldida javobgar sanaladi. Hukumat o'z faoliyati bo'yicha qonunchilik palatasiga muntazam hisobot topshirib turadi.

Hindistondagi parlament demokratiyasini tahlil etganda bevosita mamlakatimizda siyosiy hokimiyatni liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar bilan qiyoslash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ham kelgusida hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, mamlakatimiz Bosh vaziri huddi Hindistondagi singari Qonunchilik palatasida eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan partiya tomonidan shakllantirilishi, hukumatning Qonunchilik palatasi oldida javobgarligi va parlament "veto" huquqi vakolatiga ega bo'lishi bevosita mamlakatimizda

demokratik tamoyillarni yanada kengroq qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Hindistonda mustaqil sud hokimiyatining vujudga kelishi Britaniya mustamlakasi davrida shakllangan bo'lib, anglo-sakson huquqi tizimiga kiradi. Hindiston sud tizimi o'zga federativ respublikalar, xususan, AQShdan farqli ravishda yagona sudlar tizimidan iborat bo'lib, o'z ichiga shtat va federal darajani qamrab oladi. Hindiston sud hokimiyati Oliy sud, shtatlar darajasida Yuqori sud, tumanlar darajasida Tuman sudlari tizimidan iborat.

Hindiston Oliy sudi sud raisi va 30 sudyalardan iborat, ularning barchasi yuqoridan ta'kidlaganimizdek, Oliy sudya tavsiyasiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi. Hindiston Konstitutsiyasining 32 moddasida Oliy sud maqomi belgilab berilgan².

Xulosa qilib aytganda Hindistonda demokratik boshqaruv tizimida quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, Hindiston federativ respublika, ko'p millatli va diniy davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatda barqarorlikni ta'minlashda, boshqaruvni tashkil etishda mazkur jihatga alohida e'tibor qaratilgan. Shtatlar va hududiy ittifoqlar manfaatlari hisobga olgan holda boshqaruv tamoyillari qaror topgan.

Ikkinchidan, mamlakat Prezidenti davlat rahbari sanalib, ijroya hokimiyatga boshchilik qiladi. Biroq amalda Prezident ramziy maqomga ega bo'lib, real ijroya hokimiyat Bosh vazir va Vazirlar Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchidan, mamlakatning parlamentar demokratiya ekanligi, hukumat bevosita parlament nazorati ostida bo'lib, Bosh vazirning Lok Sabhada o'z hukumati faoliyati bo'yicha muntazam hisobot berib boradi.

To'rtinchidan, o'zga federativ davlatlardan farqli ravishda Hindistonda federal va shtatlar darajasiga yagona sud tizimi tashkil etilgan bo'lib, sud

¹ Қараңг. Мамлакатимизда демократик ислохотларни yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 12.11.2010.

² http://www.press-service.uz/uz/news/show/dokladi/koncepciya_dalneyeshego_uglubleniya_demo/ - 12.11.2010.
<http://www.supremecourtindia.nic.in/constitution.htm>

hokimiyati anglo-sakson huquq tizimiga asoslanadi. Sud hokimiyati Hindiston Oliy sudi tomonidan amalga oshiriladi.

2.3. Hindistonda jamiyat hayotini demokratlashtirishda siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining oʻrni

Bugungi kunda Hindistonda davlat boshqaruvi va jamiyat hayotini demokratlashtirishda siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining nizomida, saylov oldi dasturlarida mamlakat va jamiyat hayotiga oid muhim vazifalar, ularni hal etish yoʻllari belgilab berilgan boʻlib, siyosiy partiyalarning kelgusida hokimiyat tepasiga kelishlari va amaliy faoliyatlari demokratik tamoyillarini kengroq yoyilishiga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining aholi siyosiy ongini oshirishda, siyosiy ishtirok darajasini koʻtarishdagi oʻrni beqiyosdir. Plyuralizm ijtimoiy qatlamlarning oʻz manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosiy partiyalardan maʼlum birini qoʻllab-quvvatlashi yoki oʻzga ijtimoiy harakatlarga asos solishi mumkin.

Bugungi kunda Hindistonda 1,2 milliarddan ortiq turli til, din va millatdagi aholining istiqomat qilishi, ularning oʻz huquqlarini himoya qilishga intilishi kuchayib borayotgan bir vaqtda siyosiy tashkilotlar va jamoat tashkilotlar faoliyati oʻz dolzarbligini saqlab qoladi. Hindiston konstitutsiyasi mamlakatda 22 tilning tan olinish buning isbotidir¹.

¹ Kapur D., Mehta P.B. Public Institutions in India: Performance and Design. –New Delhi Oxford University Press, 2005. –P. 174-76.

Hindistonda hozirda 50 ortiq mayda va yirik partiyalar mavjud bo'lib, tadqiqotchilar S.K.Mitra va V.B.Singx ularni ikki guruhga ajratadilar¹:

A). *Milliy partiyalar*. Ular bir vaqtning o'zida bir necha shtatlar va mamlakat parlamentida faoliyat yurituvchi partiyalar hisoblanadi. Bugungi kunda ular qatoriga quyidagi partiyalarni kiritish mumkin:

1. Hindston Milliy Kongressi
2. Bxaratiya Janata Partiyasi
3. Baxujan Samaj Partiyasi
4. Hindiston Kommunistik partiyasi

B). *Shtatlar partiyasi*. Mazkur partiyalarning mamlakat siyosiy hayotiga ta'siri cheklangan bo'lib, asosan muayyan bir shtatda faoliyat yuritadi va shtatlardagi mahalliy qonunchilik palatalariga bo'lib o'tgan saylovlardagi ishtiroki bilan cheklanadi. Ular ko'p sonli bo'lganligi uchun namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Jammu va Kashmir shtatida: Jammu va Kashmir Milliy Konferensiyasi, Jammu va Kashmir Xalq Demokratik Partiyasi;
2. Gao shtatida: Maxarashtravadi Gomantak partiyasi, Gaoni asrash Fronti va boshqalar.

Umuman siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarini nazariy jihatdan mohiyatini anglash Hindistonda ularning demokratiyani rivojlantirishga qo'shayotgan xissasini to'liq anglab olishga yordam beradi.

«Partiya» so'zi lotincha «partio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ish», «qism» degan ma'nolarni anglatadi. Siyosiy partiya — aholining, sinfning, ijtimoiy qatlam yoki qatlamlarning bir qismi. Uning paydo bo'lishini siyosatshunoslar burjua demokratiyasining vujudga kelish davriga nisbat beradilar. Biroq davlatlarning konstitutsiyalarida partiya haqidagi moddalar faqat XX asrga kelib paydo bo'ldi.

¹. Mitra S.K., Singh V.B. Democracy and Social Change in India: A Cross-Sectional Analysis of the National Electorate. —New Delhi: Sage Publications, 1999. —P231-35.

Hozirgi zamon jamiyatining siyosiy hayoti murakkab, ziddiyatli va xilma-xildir. Bugun biron-bir siyosiy partiya mavjud bo'lmagan davlatni tasavvur qilish qiyin. Hozirgi dunyoning aksariyat mamlakatlarida ikki partiyaviy yoki ko'ppartiyaviy tizimlar mavjud.

Siyosiy partiyalar siyosiy hokimiyat mexanizmining faoliyat ko'rsatishida ishtirok etadi yoxud unga muayyan ta'sir o'tkazadi. Ular faoliyatining asosiy jihati aholi siyosiy ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishidir¹.

Siyosiy partiya ko'p mezonli va murakkab hodisa bo'lganligi tufayli uni ta'riflashga ham turlicha yondashuvlar mavjud. Umuman olganda, uchta ana shunday asosiy yondashuv ajratib ko'rsatiladi. Ayrimlar partiyaning ko'prok mafkuraviy birlashma sifatida tushunadilar. Boshqalar partiyaning saylov jarayoni, saylovoldi kurashi, hokimiyatni egallashga intilish bilan bog'liq holda ta'riflaydilar. Markschiyalar «partiya» tushunchasiga sinfiy nuqtai nazardan ta'rif beradilar. Ular partiyaning sinfining eng ongli, uyushgan, o'z manfaatlarini himoya qiladigan qismi deb hisoblaydilar.

Shunday qilib quyidagi ta'rifni asos sifatida qabul qilish mumkin: siyosiy partiya — fuqarolarning eng faol, mafkuraviy mushtaraklik bilan bog'langan, davlatda hokimiyatni qo'lga olishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi. Hokimiyat — har qanday partiyaning asosiy maqsadi. Partiya qaysi ijtimoiy guruh yoki sinfining tashabbusi bilan yuzaga kelgan bo'lsa aynan shularning manfaatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Partiya o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ygan bo'lsa ham ularga hokimiyat uchun kurash, o'z hukumatini shakllantirish yoki koalitsion hukumat tarkibiga o'z vakillarini kiritish orqali erishadi. Hukmronlikni qo'lga kiritgan partiya davlatning butun qudratidan o'ziga vakolat bergan ijtimoiy-sinfiy kuchlarning manfaatlari yo'lida foydalanishga intiladi.

Partiya boshqa jamoat tashkilotlari va harakatlardan, lobbistlar tuzilmalaridan aynan shunisi bilan farq qiladi. Bu sanab o'tilganlar ham xuddi partiyalar singari siyosiy hayotda faol ishtirok etadi, lekin o'z oldiga davlatda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va hokimiyatdan foydalanish maqsadini qo'ymaydi.

Partiyalar bilan ijtimoiy harakatlar o'rtasidagi tub farq shundan iboratki, partiyalar davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish uchun kurashadilar, ijtimoiy harakatlar

¹ Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт (ўқув қўлланма). / Муаллифлар гуруҳи. –Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. –Б.127-28.

esa unda bevosita ishtirok etishga da'vo qilmaydilar va shu bilan bog'liq majburiyatlarni ham o'z zimmlariga olmaydilar. Siyosiy partiyalarning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi, a'zolikning va muayyan ijtimoiy negizning mavjudligi, siyosiy dastur va ustavga ega bo'lishi, partiyaga birlashgan kishilarning umumiy manfaatlarga va bir-biriga yaqin bo'lgan mafkuraviy qarashlarga ega bo'lishi; bir yoki bir necha liderlarning mavjudligi.

Shunday qilib, partiyalar vujudga kelishining juda ko'p yo'llari mavjud. Partiyalar paydo bo'lishining ikki asosiy sababini ko'rsatish mumkin:

- siyosatda ishtirok etish sohasini ancha kengaytirgan umumiy saylov huquqining joriy etilishi;

- ishchilar sinfining tashkiliy jihatdan rivojlanishi. Buning ta'siri ikki yoqlama namoyon bo'ldi: bir tomondan, uyushayotgan proletariat parlamentda va undan tashqarida uning manfaatlarini hamoya qiluvchi ko'plab ommaviy partiyalarni yaratdi; ikkinchi tomondan esa, raqobat taqozosi bilan an'anaviy siyosiy guruhlarining son jihatdan o'sib borayotgan proletar partiyalariga o'zlarining tegishli tarzda transformatsiya qilingan tashkiliy tuzilmalarini qarshi qo'yish zarurati paydo bo'ldi¹.

Partiyalar siyosiy qarashlari bir-biriga yaqin bo'lgan shaxslardan tashkil topgan, barqaror va siyosiy pog'onalarga ega bo'lgan tashkilotdir. Partiyalarning asosiy maqsadlari u yoki bu tarzda siyosiy tizimlarda hokimiyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan. Ular a'zolarining umumiy siyosiy g'oyalari asosida partiyalarning dasturlari ishlab chiqiladi va ularda qiska, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan vazifalar belgilanadi.

Partiya tuzilmasida quyidagi asosiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: a) rahbarlik rolini boshqaruvchi oliy yo'l boshchi va shtab; b) rahbarlik qiluvchi guruhning buyruqlarini bajaruvchi barqaror byurokratik apparat; v) byurokratiya tarkibiga kirgani holda partiya hayotida ishtirok etuvchi faol partiya a'zolari; g) partiyaga ergashuvchi, lekin uning faoliyatida juda kam ishtirok etuvchi passiv a'zolar. Ular qatoriga partiyaga xayrixoh bo'lganlarni va pul-mablag' bilan yordam ko'rsatuvchilarni ham qo'shish mumkin.

¹ Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт (ўқув қўлланма). / Муаллифлар гуруҳи. –Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. –Б.128-29.

Birinchi mezon (tashkilotning uzoq muddat mavjud bo'lishi) partiyani o'z asoschilari va ilhomchilari bilan birga yo'q bo'lib ketuvchi fraksiyalar va to'dalardan farqlash imkonini beradi.

Ikkinchi mezon (tashkilotning to'la miqyosda, mahalliy nog'onalarni ham qamrab olgan holda faoliyat ko'rsatishi) partiyani tashkilotlar bilan mukammal va doimiy aloqaga ega bo'lmagani holda faqat milliy miqyosda mavjud bo'ladigan oddiy parlament guruhidan farqlab turadi.

Uchinchi mezon (hokimiyatni amalga oshirish uchun intilish) siyosiy partiyalar bilan turli ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar o'rtasidagi farqni belgilashga imkon yaratadi. Partiyalarning bevosita maqsadi — hokimiyatni egallash yoki uni amalga oshirishda ishtirok etish. Partiyalar jamiyatni rivojlantirish yoki qayta qurishning global konsepsiyalarini olg'a suradi va uni amalga oshirishga intiladi.

To'rtinchi mezon (xalqning qo'llab-quvvatlashiga erishish, xususan, saylovlar yo'li bilan) partiyani tazyiq o'tkazuvchi guruhlardan ajratib turadi, ular, odatda, saylovlarda ishtirok etmaydilar, parlament hayotida qatnashmaydilar, faqat partiyaga, hukumatga, ijtimoiy fikrga yashirin ta'sir ko'rsatadilar. Siyosiy partiyalar — shunday siyosiy birlashmalardirki, ular ijtimoiy guruhlarning manfaatlari, maqsadlari va ideallarini jamlantirilgan shaklda ifoda etadilar, ana shu guruhlarning eng faol vakillaridan tashkil topadilar va jamiyatda davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik jarayonida ularga rahbarlik qiladilar. Ular sinflarni va boshqa ijtimoiy guruhlarini bir-birlari bilan hamda davlat hokimiyati bilan bog'lovchi vositachi institutlar sifatida namoyon bo'ladilar.

Siyosiy partiyalar siyosatning o'zicha faoliyat ko'rsatuvchi sub'ektlari singari boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Jumladan, muayyan tashkilotning hamda hokimiyat va boshqaruv apparatining mavjudligi; ularning a'zolarini birlashtirib turuvchi va tarafdorlarni jalb etuvchi g'oyaviy tamoyillarning mavjud bo'lishi; muayyan dasturiy qoidalarining qayd etilishi (ular ochiq ifodalanishi ham, yashirin mavjud bo'lishi ham mumkin); a'zolar va tarafdorlardan iborat ommaviy negizning mavjudligi.

Partiyalarni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi eng asosiy belgi esa ularning davlat hokimiyati uchun, davlat siyosatini shakllantirish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish huquqi uchun ochiq va aniq ifodalangan kurashga yo'naltirilganligidir.

Siyosiy partiyaning mohiyati quyidagi asosiy tavsiflarga bog'liq: partiyaning ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy negizi; partiya rahbariyatining tarkibi, manfaatlari va maqsadlari; tashkilotning dasturiy qoidalari; uning siyosiy xatti-harakatlarining ob'ektiv yo'naltirilganligi.

Siyosiy partiya mohiyatining eng muhim ko'rsatkichi uning oxir-oqibatda kimning va qanday kuchlarning manfaatlari hamda qarashlarini ifoda etishi, himoya qilishi va o'z kundalik faoliyatida amalga oshirishidir.

Hindistondagi siyosiy partiyalarning jamiyatda bajarayotgan rolini quyidagilar orqali izohlash mumkin:

Siyosiy partiyaning jamiyatdagi funksiyalari hayotdagi masalani o'rganish uning siyosiy taraqqiyotdagi o'rni va rolini tushunib yetish, maqsadlarini yaxshiroq tasavvur etishga yordam beradi. Jamiyatning siyosiy tizimida siyosiy partiyalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradilar:

- siyosiy maqsadni belgilash. Mafkurani va dasturlarni ishlab chiqarar ekan, partiyalar strategiyani belgilashga, fuqarolarni muqobil va boshqa xatti-harakatlarning ham mumkinligiga ishontirishga intiladilar;

- ijtimoiy manfaatlarni ifoda etish va saralash. Manfaatlarni guruhlar ham ifoda etishlari mumkin, lekin faqat partiyalargina ularni markaziy davlat organlarining qarorlariga ta'sir ko'rsatadigan shaklda bir butun qilib birlashtira oladilar;

- fuqarolarni safarbar qilish va ijtimoiylashtirish. Partiyalar o'z faoliyatining uzoq muddatli ijtimoiy va g'oyaviy-psixologik asosini yaratadilar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantiradilar;

- hukmron elitani rekrutlash (shakllantirish). Hokimiyatning mahalliy organlarini, hukumatning avval yashirin, so'ngra esa real tarkibini shakllantiradilar; hokimiyatning vakolatli organlari bilan jamiyat o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydilar; boshqa siyosiy

institutlar bilan birga davlat boshqaruvi va ijtimoiy boshqaruv mexanizmini shakllantiradilar; hukumat tuzilmalari va mexanizmlarining barqarorligini ta'minlaydilar;

- siyosiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari orasida dasturiy qoidalar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy strategiyani ishlab chiqishni alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Hozirgi zamon strategiyasini ishlab chiqishga malakali kadrlar jalb etiladi¹.

Hindistonda jamoat tashkilotlari va nohukumat tashkilotlar faoliyatining vujudga kelishi Britaniya boshqaruv davriga borib taqaladi. Shu bilan birga hind jamiyati ikki konsepsiyaga asoslanishini ta'kidlash joiz: Birinchi konsepsiya *daana* (berish), ikkinchi konsepsiya *seva* – servis ya'ni xizmat ko'rsatish. Mana shunday jamoat tashkilotlari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1858 yilda tashkil etilgan Do'stlik jamiyati;
- 1864 yilgi Pratana Samaj jamiyati;
- 1873 yilgi Satya Shodxon Samaj tashkiloti
- 1875 yilgi Hindiston ayollari milliy kengashi
- 1887 yilgi Hindiston Milliy Konferensiyasi

Ma'lumki, Hindistonda 1953 yil Markaziy itimoiy farovonlik boshqarmasi ta'sis etilib, uning maqsadi sifatida aholining jamoat tashkilotlari va nohukumat tashkilotlardagi ishtirokini ta'minlash huquqiy, siyosiy ongini oshirish maqsad qilib olingan yedi. Shu bilan birga 1958 yil Hindistondagi turli nohukumat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish uchun rivojlanish agentliklari assotsiatsiyasi tashkil etildi. Bu tashkilotlar faoliyatini cheklash emas aksincha ularning faoliyatini samarali tashkil etishning o'ziga xos mexanizmi hisoblanadi.

Hindistondagi jamoat va nohukumat tashkilotlarning yana bir muhim jihati ularning jamiyat farovonligiga qo'shayotgan hissasi va ish o'rinlari mavjudligini ta'minlashdir. Hozirgi vaqtda 1,5 millionda ortiq nohukumat tashkilotlar Hindistonda faoliyat yuritmoqda².

¹ Frankel F., Hasan Z., Bhargava R. and Arora B. Transforming India: Social and Political Dynamics of Democracy. – New Delhi: Oxford University Press, 2000. – P.164-68.

² Overview of civil society organizations in India. / Civil society briefs. –New Delhi –2009. – №3. – P.2.

Xulosa qilib aytganda, Hindistondagi siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining mamlakatdagi demokratiyani rivojlantirishga qo'shayotgan xissasini tahlil etishda ularning funksiyalaridan kelib chiqqan holda fikr bildirish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Tashkilotning uzoq muddat davomida mavjud bo'lishi, ya'ni partiya uzoq muddat davomida siyosiy faoliyat ko'rsatishni mo'ljallaydi;

2. Milliy rahbariyat bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi barqaror mahalliy tashkilotlarning mavjudligi;

3. Markaziy va mahalliy tashkilotlar rahbarlarining faqat hokimiyatga qandaydir ta'sir ko'rsatishni emas, balki hokimiyat uchun kurashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi;

4. Saylovlar yoki boshqa usullar yordamida o'zining xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yo'llarini izlash.

Bu esa kelgusida hind jamiyati va davlat boshqaruvida demokratik an'analarga amal qilinishi kengayib borish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ish Hindistonda demokratiyaning rivojlanish xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, uni tayyorlash davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Demokratiya – doimiy o'zgarish, rovojlanishda bo'lgan hodisa. Inson qo'li bilan demokratiya ezgulikka ham, Yovuzlikka ham yo'naltirilishi mumkin. Keyingisi yuz bermasligi uchun bu hodisaning tabiatidan kelib chiqadigan barcha nuqson-illatlar haqida o'z-o'ziga yaxshilab hisob berish kerak bo'ladi. Asrlar davomida aksildemokratik tafakkurning juda mustahkam an'analari mavjud bo'lib kelganligi tasodifiy emas.

2. Zamonaviy siyosatshunoslikda “demokratiya” iborasini to'rt ma'noda qo'llash uning mazmunini to'liq anglashga xizmat qilishi mumkin:

5) asosiysi – xalq hokimiyati, “xalq boshqaruvi, xalq tomonidan saylangan va xalq uchun saylanish”;

6) a'zolarining boshqaruvdagi teng huquqli ishtiroki va ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qilishga asoslangan har qanday tashkilotning tuzilish shakli;

7) muayyan qadriyatlar tizimi, muayyan dunyoqarashga asoslangan ideal jamiyat tuzumi. Erkinlik, tenglik, inson huquqi va boshqalarni bu idealning tarkibiy qismlari qatoriga kiritadilar;

8) xalq hokimiyatiga intilgan ijtimoiy va siyosiy harakatlar, demokratik maqsad va ideallarni amalga oshirish.

3. Siyosiy tizim va siyosiy demokratik jamiyat siyosiy hayotida o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy hodisalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Siyosiy tizim demokratiyaga qanchalik ta'sir etsa, demokratiya ham siyosiy tizimning rivojlanishiga shunchalik kuchli ta'sir qiladi. Olim Jozep Shumpeter ta'kidlaganidek, “demokratiya siyosiy metod bo'lib, siyosiy-huquqiy va ma'muriy qarorlar qabul qilishning muayyan bir institusional tashkiliy jihati hisoblanadi”. Shuningdek, olim Robert Dal ham o'z ilmiy qarashlarida demokratik boshqaruv shaklini yoqlab chiqqan va uning ijobiy jihatlarini tizimli holda talqin etgan.

Hozirda demokratiyaning zamonaviy modellari mavjud bo'lib, ilmiy adabiyotlarda demokratiyaning 3 asosiy zamonaviy modeli keltiriladi: liberal, identitar, plyuralistik.

4. Demokratiya bugungi kunda davlat boshqaruvining eng muvafaqqiyatli modeli bo'lib, siyosiy tizimni demokratlashtirish va inson huquqlari ustivorligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish demokratiyaning umume'tirof etilgan va tarixiy sinovdan muvafaqqiyatli o'tgan prinsiplariga asoslanishi lozim. Chunki bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan demokratiyaning barcha modellari o'z ijobiy va salbiy jihatlariga ega, barcha davlatga mos yagona universal modeli mavjud emas. Demokratiyaning ma'lum bir me'yorlari bo'lsa-da, u har bir xalqning tafakkur tarzi, voqea-hodisalarga munosabati, uni baholash mezoni, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. Demak, demokratiya qandaydir tiqishtirilgan modellar asosida emas, balki har bir millat qurayotgan davlat va jamiyat bilan birga shakllanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Hindistonda demokratiyaning mohiyati mamlakat siyosiy an'analari orqali tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar Hindistonda demokratiya tamoyillarning kirib kelishini mustamlakachilik siyosati bilan bog'lashadi. Xususan, Hindistonning uzoq yillar davomida jahondagi eng demokratik tipdagi davlat hisoblangan Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy tartibotlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Hindistonda G'arbda ta'lim olgan J.Neru singari siyosiy elitalarning shakllanishi, Kongress yetakchiligidagi jamoa harakatlarning demokratik faoliyati, mustaqillik uchun o'tkazilgan saylovlarda Kongressmenlarning ishtirok etishi demokratiyaning rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan deyish mumkin.

6. Hindistonda demokratiyaning rivojlanishida siyosiy partiyalarning o'rni katta ahamiyatga ega. 1951-52 yillarda Hindiston konstitutsiyasi 170 million ahaoliga o'z hukumatlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini berdi. Endilikda aholi o'z manfaatlarini turli siyosiy guruhlar, harakatlar va partiyalar orqali bildirishga intila boshladilar. Shunga qaramay Hindistonda ko'p hollarda

siyosiy partiyalarga nisbatan mamlakatda aholi o'rtasidagi sun'iy bo'linishni yuza keltirmoqda va jamiyatda deintegratsiya jarayonini kuchaytirmoqda degan qarashlar ham uchrab turadi. Biroq bu avvalo siyosiy partiyalar faoliyati bilan emas, balki Hindiston ijtimoiy hayotida tarixan shakllanib kelgan turli diniy-etnik qatlamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda jamiyatdagi deintegratsiya tendensiyasining siyosiy oqibatlarini nazorat etish siyosiy partiyalarning funksiyalaridan biriga aylanib bormoqda.

7. Hindistonda Hindiston Milliy Kongressi partiyasining siyosiy ta'sirini qisqartirish intilish asosan Bxaratiya Janata partiyasi tomonidan amalga oshirilgan va 1980 yillardan so'ng Hindistonda ikki partiyali tizim shakllana boshlandi. Bxaratiya Janata Partiyasi (BJP) (Bharatiya Janata Party (BJP)) 1990 yillardan boshlab Hindistonda partiyalar o'rtasidagi raqobat muhiti keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Bxaratiya Janata partiyasi 1996, 1998 va 1999 yilgi saylovlarda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ushbu partiyaning ta'sir doirasi ortib borishi ikki tarixiy xususiyati bilan ajralib turadi: *Birinchidan*, partiya hind fundamentalizmi negizida rivojlanganligi; *ikkinchidan* J.Neru va Sh.Gandi boshqaruv davrida Hindiston Milliy Kongress partiyaning mutloq yetakchiligiga qarshi keng qarshiliklarni amalga oshirishga rahbarlik qila olganligi. 1989 yildan boshlab Bxaratiya Janata partiyasi ikkinchi asosiy siyosiy partiyaga aylandi, ammo HMK partiyasi singari hukumatni yolg'iz o'zi boshqarish uchun yetarlicha imkoniyatga ega emas, shu bois doimo ushbu partiya shatatlardagi kichik partiyalar bilan hamkorligiga qaram hisoblanib kelgan.

Hindistondagi parlament demokratiyasini tahlil etganda bevosita O'zbekistonda siyosiy hokimiyatni liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar bilan qiyoslash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ham kelgusida hukumat faoliyati ustidan parlament

nazoratini amalga oshirish, mamlakatimiz Bosh vaziri huddi Hindistondagi singari Qonunchilik palatasida eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan partiya tomonidan shakllantirilishi, hukumatning Qonunchilik palatasi oldida javobgarligi va parlament "veto" huquqi vakolatiga ega bo'lishi bevosita mamlakatimizda demokratik tamoyillarni yanada kengroq qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda zamonaviylik va an'anaviy davlat boshqaruv xususiyatlari, "daana", "seva" singari jamiyatni shakllantirish konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. Bu bir tomondan demokratiyaning hamma davlat uchun bir hilda mos tushadigan modeli mavjud ekanligini isbotlasa, boshqa tomondan yosh demokratik rivojlanayotgan davlatlar uchun demokratiyaning "hind modeli" ma'lum ma'noda andoza vazifasini o'tashi, ijobiy jihatlari va tajribalaridan foydalanish imkoniyati shakllanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**1. Rahbariy adabiyotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –364 б.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т.2. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –380 б.
- 1.3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. –429 б.
- 1.4. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. –Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –376 б.
- 1.5. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. –Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000. –528 б.
- 1.6. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. –Т.9. –Т.: Ўзбекистон, 2001. –432 б.
- 1.7. Каримов И.А.. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. –Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –432 б.
- 1.8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11. –Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- 1.9. Каримов И.А.. Тинчлик ва ҳафсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. –Т.12 –Т.: Ўзбекистон, 2004. –400 б.
- 1.10. Каримов И.А.. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
- 1.11. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –320 б.

- 1.12. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. –Т.17. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
- 1.13. Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –144.б.
- 1.14. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –326.б.
- 1.15. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008. –176 б.
- 1.16. Каримов И.А. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисида сўзланган нутқ. // «Халқ сўзи». 2010 йил 22 сентабр.
- 1.17. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон РеспубликаситОлий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлиси даги маъразуси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябр.
- 1.18. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислон Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конститутсияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабр.

2. Me’oriy – huquqiy hujjatlar

- 2.19 Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Низоми. –Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. –75 б.
- 2.20 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Т.: O‘zbekiston, 2009. –40 b.

- 2.21 The Constitution of India (As modified up to the 1st December, 2007). // Government of India. Ministry of Law and Justice // <http://lawmin.nic.in/coi/coiason29july08.pdf> - 29 July 2008.

3. Kitoblar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalar

- 3.22 Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. –Т.: Шарқ, 2005. –456 с.
- 3.23 Бўриев М. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮОИ нашриёти, 2006. –268 б.
- 3.24 Гиясов Б.Т., Камилжанов А., Мустапова Х. Международные отношения и дипломатия на современном этапе. –Т., 2009. –312 с .
- 3.25 Дал Р. Демократия и ее критики / Пер. с англ. под ред. Илина М. В. – М.: РОССПЕН, 2003. – 284 с.
- 3.26 Жўраев Т., Ақобиров С. Миллий манфаатлар ва миллий хавфсизлик (ўқув қўлланма). –Т.: Академия, 2007. –Б.106.
- 3.27 Жўраев С.А. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси (ўқув қўлланма). –Т.: Академия, 2007. –302 б.
- 3.28 Жўраев С.А. Замонавий халқаро муносабатлар. –Т.: Академия, 2007. – 184 б.
- 3.29 Жураев С.А., Касимова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. –Т.:Академия. 2008. –320 с.
- 3.30 Касимов А.М, Гиясов Б.Т. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Т., 2009. –234 с .
- 3.31 Кулагин В.М. Международная безопасность. –М. АСПЕКТ ПРЕСС, 2007. –298 с.
- 3.32 Лансова С.А., В.А.Ачкасова. Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. – СПб.: Питер, 2009. –266 с.
- 3.33 Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Е. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –559 б.

- 3.34 Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008. –244 б.
- 3.35 Сафарова Н. Терроризм: манбалар, мақсад ва глобаллашув жараёни. – Т.: Фан, 2006. –254 б.
- 3.36 Ғофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўланова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 240 б.
- 3.37 Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспектлари. – Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. –215 б.
- 3.38 Шарапова С. Каримова Н. Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада. –Т.: Фан, 2006. –404 с.
- 3.39 Brass P.R. The Politics of India Since Independence. –Cambridge: Cambridge University Press, 1999. –384 r.
- 3.40 Granville A. The Indian Constitution: Cornerstone of A Nation. –Bombay: Oxford University Press, 1994. –452 r.
- 3.41 Frankel F., Hasan Z., Bhargava R. and Arora B. Transforming India: Social and Political Dynamics of Democracy. – New Delhi: Oxford University Press, 2000. – 434 r.
- 3.42 Kapur D., Mehta P.B. Public Institutions in India: Performance and Design. –New Delhi Oxford University Press, 2005. – 367 r.
- 3.43 Kohli A. Democracy and Discontent: India's Growing Crises of Governability. –Cambridge: Cambridge University Press, 1990. –286 r.
- 3.44 Kohli A. India's Democracy. An Analysis of Changing State-Society Relations. –New Jersey: Princeton University Press, 1990. – 334 r.
- 3.45 Narang A. S. Indian Government and Politics. –New Delhi:Geetanjali Publishing House, 2004. –347 r.
- 3.46 Mitra S.K., Singh V.B. Democracy and Social Change in India: A Cross-Sectional Analysis of the National Electorate. –New Delhi: Sage Publications, 1999. – 417 r.

- 3.47 Ralekar S.A. Constitution and Parliamentary Democracy in Contemporary India. –Jaipur: ABD Publishers, 2002. – 348 r.
- 3.48 Sandeep Sh., Suri K.L., Yadav Y. Electoral Politics in Indian States. –New Delhi: Oxford University Press, 2009. –343 r.

4. Davriy nashrlar

- 4.49 Абазов Р. Глобальные перемены и геополитика на пороге ХХИ века // Мировая экономика и международные отношения. –1999. –№2. – С.116-120.
- 4.50 Акимов А.В. Индия. год спустя.// [Азия и Африка сегодня. –2010. –№ 6.](#) –С.39-42.
- 4.51 Гуггенбергер Б. Теория демократии. // Полис. –1991. –№4. –С.113-24.
- 4.52 Качоха В. Проблема общего блага в современной демократии // Вопросы философии. – М. – 2000. – № 5. – С.317-24.
- 4.53 Мустапова Ҳ.И. Ўзбекистон-Ҳиндистон муносабатларида Марказий Осиёда барқарорликни таъминлаш масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - жамиятнинг барқарор ривожланиш кафолати: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами: Тошкент, 2010 йил 3 декабр. –Т.: ТошДШИ, 2010. –Б.214-217.
- 4.54 Появление Индии в Центральной Азии в качестве очередного игрока //Аму Даря. –2001. –№ 4. –С.35-38.
- 4.55 Хакимова Н. Ҳиндистон ва Марказий Осиё минтақаси: ҳамкорлик истиқболлари // Шарқшунослар анжумани. –Т. –№.5. –Б.102-107.
- 4.56 Шаумян Т. Индийско-китайская граница: перспективы урегулирования проблемы. //Азия и Африка сегодня. –2008. –№ 9. –С.27-32.
- 4.57 Яскина Г. Россия-Китай-Индия: перспективы трехстороннего сотрудничества // Проблемы Дальнего Востока. – 2007. –№ 1. –С.28-31.

- 4.58 Amir A. The Evolution of the Public Sphere in India. // Economic and Political Weekly. – June 30 2010. –R.49-56.
- 4.59 Baviskar B.S. NGOs and Civil Society in India. // Sociological Bulletin. – 2001. –Vol.50. –№.1. –R.58-66.
- 4.60 Gey P., Jobelius M., Tenbusch R. India. Challenges On The Road To Becoming A World Power // Compass 2020. –2007. –№2. –R.2-23.
- 4.61 Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. – 2002. –Vol.4. –№1. –P.28-39.
- 4.62 Kothari R. Continuity and Change in the Indian Party System // Asian Survey. –1970. –№10 (11). –R.46-57.
- 4.63 Kushal R. The Parliamentary and Assembly Elections in Haryana. // Journal of Government and Politics. –March 2008. –Vol. XXXI. –№.1. –R.62-67.
- 4.64 MahajanG. Civil Society and Its Avatars. // Economic and Political Weekly. – May 15-21, 2009. –R.21-29.
- 4.65 Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. – Vol.2. –R.94.
- 4.66 National Election Study. // Economic and Political Weekly. –September-October 2009. –Vol. XLIV. –№.39. –R.48-54.
- 4.67 Overview of civil society organizations in India. / Civil society briefs. –New Delhi –2009. – №3. – P.2-7.
- 4.68 Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –R.41-48.


5. Internet manbalari

- 5.69 Paul T.V., [Wirtz J.](#), [Fortmann M.](#) Balance of Power: Theory and Practice in the 21st Century // <http://www.foreignaffairs.com/articles/60299/g-john-ikenberry/balance-of-power-theory-and-practice-in-the-21st-century> - [18.02.2009](#)

- 5.70 Craig J. Decentralisation in India: Poverty, Politics and Panchayati Raj. // Working Paper 199. Westminster: Department of Political Science. University of Guelph, Ontario, February 2003. // <http://www.odi.org.uk/resources/download/1767.pdf>
- 5.71 Council of States (Rajya Sabha) - http://rajyasabha.nic.in/rsnew/council_state/council_state.asp;
- 5.72 Lok Sabha (House of the People) - <http://loksabha.nic.in>
- 5.73 Rotfeld A.D. Global security after 11 September 2001 // SIPRI Yearbook 2010: Armaments, Disarmament and International Security.-R.14-16. // http://www.swp-berlin.org/fileadmin/contents/products/comments/2010C13_brn_ks.pdf - 17.02.2010
- 5.74 Vice-President of India - <http://vicepresidentofindia.nic.in/const.asp>
- 5.75 Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. March/April 2007. -P.43 // <http://www.fpri.org/footnotes/1605.201106.ganguly.india.pdf>

Ilova 1.

Hindiston davlat boshqaruv strukturasi



*Ilova 2. Jadval*Hindiston Bosh vazirlari ro'yxati
(1984-2011)

Name	Tenure	Party
Dr. Manmohan Singh	May 22, 2004 - till date	INC
Shri Atal Bihari Vajpayee	March 19, 1998 - May 22, 2004	Bharatiya Janata Party
Shri Inder Kumar Gujral	April 21, 1997 - March 19, 1998	Janata Dal
Shri H. D. Deve Gowda	June 1, 1996 - April 21, 1997	Janata Dal
Shri Atal Bihari Vajpayee	May 16, 1996 - June 1, 1996	Bharatiya Janata Party
Shri P. V. Narasimha Rao	June 21, 1991- May 16, 1996	Congress (I)
Shri Chandra Shekhar	November 10, 1990 - June 21, 1991	Janata Dal (S)
Shri Vishwanath Pratap Singh	December 2, 1989 - November 10, 1990	Janata Dal
Shri Rajiv Gandhi	October 31, 1984 - December 2, 1989	Congress (I)

Ilova 3. Jadval

Hindisdondagi “milliy partiyalar” – asosiy partiyalar

Party	Abbreviation	Leader	Ideology	Position
Bahujan Samaj Party	BSP	Mayawati	Dalit Socialism and secularism	centrist
Bharatiya Janata Party	BJP	Nitin Gadkari	Conservatism-Cultural nationalism and free market/Economic nationalism	centre-right
Communist Party of India	CPI	A.B. Bardhan	Communism	Far-left
Communist Party of India (Marxist)	CPI(M)	Prakash Karat	Communism and Marxist-Leninist	Far-left
Indian National Congress	INC	Sonia Gandhi	Social democracy and social liberalism	centre-left
Nationalist Congress Party	NCP	Sharad Pawar	Secular democracy	centrist

Ilova 4. Xarita

Hindistonda asosiy siyosiy partiyalar faoliyat yuritadigan mintaqalar

